

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI

“MOLIYA” KAFEDRASI

IBRAGIMOVA DILDORA ABZAIROVNA

**«MAHALLIY BUDJETLAR MABLAG‘LARIDAN SAMARALI
FOYDALANISH YO‘LLARI»**

↑

Ў3340600 -“Moliya”- ta‘lim yunalishi bo‘yicha bakalavr darajasini o‘lsh uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Moliya» kafedrasi mudiri

_____ i.f.n., dots. O.Komolov

«_____» _____ 2013 y.

Ilmiy rahbar: _____ X.Axmedov.

TOSHKENT - 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY-XUQUQIY ASOSLARI.....	6
1.1.Davlat budjeti daromadlarini iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....	6
1.2.Davlat budjeti daromadlarini oshirishning tashkiliy – iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	11
1.3.Xorijiy mamlakatlarda davlat byudjeti daromadlarini nazariy asoslari..	20
I bob bo'yicha xulosa.....	26
II BOB. DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARI SHAKLLA-NISHINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	28
2.1. Davlat budjeti daromadlari shakllantirishda soliqlar salmog'i tahlili	28
2.2. Davlat byudjeti daromadlarini shakllanishi jarayonida xorijiy mamlakatlar soliq stavkalari tahlili	39
II bob bo'yicha xulosa.....	48
III BOB. DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI OSHIRISHDA JAHON AMALIYOTI VA ULARNI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QO'LLASH MASALALARI	50
3.1. Davlat budjeti daromadlarini oshirishdagi muammolar va ularni hal qilish imkoniyatlari	50
3.2. Davlat byudjeti daromadlarini oshirishda jahon amaliyotidan foydalanish masalalari.....	56
III bob bo'yicha xulosa.....	61
XULOSA.....	63
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	66

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Davlatning ijtimoiy – iqtisodiy vazifalarini o'z vaqtida to'liq va ijobiy hal etish ma'lum moliyaviy asosni talab etadiki, aynan ushbu asosning markaziy bo'g'inini davlat budjeti daromadlari tashkil etadi. Davlat moliyasini sog'lomlashtirish davlat budjeti daromadlarining barqarorligini, ularni shakillantirish manbalari mukammal nisbatini va butligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan institutsional isloxlarni xozirgi bosqichida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bir vaqtning o'zida mamlakatimiz budjetining so'ngi yillaridagi ijobiy qoldig'i, ya'ni budjetning profitsit bilan yakunlanishiga qaramasdan, budjetni belgilangan miqdordagi daromadlar bilan ta'minlash masalasining juda kata qiyinchiliklar bilan hal etilayotganligini, davlatning ixtiyorida bo'lishi lozim bo'lgan moliyaviy resurslarning yetarli darajada emasligi uning o'z oldiga qo'ygan vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida davlat budjeti daromadlarini shakillantirish ma'lum bir qiyinchiliklarni vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jahon xamjamiyatiga integratsiyalashuvida tashqi tahdidlarning sodir bo'lishi muqarrar. Bu borada davlatimiz rahbari I.Karimovning quyidagi fikrlari e'tiborga loyiqdir: “2012 yilda soliq yukini kamaytirish siyosati davom ettirildi. Kichik korxona va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 6 foizdan 5 foizga tushirilgani, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliq stavkasi esa sezilarli tarzda, ya'ni o'rtacha ikki barobar kamaytirilgani buni yaqqol tasdiqlaydi”. Shu o'rinda davlat byudjeti daromadlarini oshirishda jahon amaliyoti va ularni O'zbekiston Respublikasida qo'llash istiqbollari ko'rib chiqish muhim xisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi bo'lib, Davlat byudjeti daromadlarini

oshirishda jahon amaliyoti va ularni O'zbekiston Respublikasida qo'llash istiqbollari yuzasidan amaliy tavsiya va takliflar berish ishdab chiqish xisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqqan xolda bitiruv malakaviy ishining oldigi qo'yilgan maqsadga erishish uchun kuyidagi asosiy vazifalar belgilab olinidi:

- davlat budjeti daromadlarini iqtisodiy mohiyati va axamiyati;
- davlat byudjeti daromadlari shakllanishi yuzasidan xorij tajribasi:
- davlat budjeti daromadlarini shakillantirishning tashkiliy – iqtisodiy va huquqiy asoslari;
- davlat budjeti daromadlarini shakillantirishda soliqlar salmog'ini tahlili;
- rivojlangan mamlakatlarda soliq stavkalari tahlilini;
- davlat budjeti daromadlarini oshirishdagi muammolar va ularni hal qilish imkoniyatlari;
- davlat budjeti daromadlarini oshirishdagi jahon amaliyoti va uni O'zbekistonda qo'llash istiqbolli yo'nalishlari yuzasidan amaliy tavsiya va takliflar tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Davlat Soliq Qo'mitasi, Rivojlangan davlatlar makroiqtisodiyko'rsatkichlari va soliq stavkalari bitiruv malakaviy ishining ob'ekti xisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Davlat budjeti daromadlarini shakillantirish jarayonida yuzaga chiqadigan moliyaviy munosabatlar bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib xisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy-amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining nazariy-amaliy ahamiyati shundan iboratki, o'rganilgan va tahlil qilingan materiallar, bayon qilingan fikr-mulohazalar, xulosa va takliflardan iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida davlat budjeti daromadlarini

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter
oshirishni takomillashtirish masalalarida nazariy-amaliy manba sifatida
qo'llanilishi mumkin

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta
bob, ettita paragrafni, xulosalar xamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan
iborat.

I BOB. DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

1 Davlat budjeti daromadlarini iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Budjet daromadlari davlatni markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismi bo'lib, davlat funktsiyalarini bajarish uchun zarurdir. Ular pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlar-ni o'zida ifoda etadi va turli darajadagi hokimiyat organlarining ixtiyoriga kelib tushadi.

Qayd etilganlarni inobatga olgan holda unga budjet daromad-larining ma'no-mazmunini ifodalovchi quyidagi ta'riflarni be-rish mumkin: pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayoni-da vujudga keluvchi iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o'zida ifoda etadigan, hokimiyat organlarining turli darajalari ixtiyo-riga kelib tushadigan, davlatning funktsiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davlat markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismi budjet daromadlari deyiladi.

Mamlakatlarning davlat tuzilishiga bog'liq ravishda budjet daromadlari quyidagicha farqlanadi:

1. markaziy (davlat) budjet(i) daromadlari;
2. unitar (yagona) davlatlardagi mahalliy budjetlar daromadlari.

Federativ (ittifoqchilik) tuzilish(i)ga ega bo'lgan davlatlarda budjet daromadlarining bu ikki ko'rinishi federatsiya a'zolari budjetlarining daromadlari bilan to'ldiriladi.

Budjet daromadlari davlat daromadlariga nisbatan torroq da-rajadagi tushunchadir. Chunki davlat daromadlari hokimiyatning barcha darajadagi budjetlarining moliyaviy mablag'lari bilan birgalikda yana o'zining tarkibiga davlatning budjetdan tashqari jamg'armalari va davlat sektoriga tegishli bo'lgan

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter
boshqa resurslarni ham qamrab oladi.

Budjet daromadlarining asosiy moddiy manbai milliy daromaddir. Agar davlatning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun milliy daromad yetarli bo'lmasa, davlat bunday ehtiyojni qondirishga milliy boylikni jalb etishi mumkin. Bu erda milliy boylik deyilganda ma'lum bir davrda jamiyatning ixtiyorida bo'lgan, hozirgi va o'tgan avlodning mehnatlari evaziga yaratilgan moddiy ne'matlar hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan tabiiy resurslar majmui nazarda tutilayapti.

Milliy daromadni davlat ixtiyoriga o'tkazish turli metodlar yordamida amalga oshiriladi. Soliqlar, davlat krediti va pul emis-siyasi davlat hokimiyati organlari tomonidan milliy daromadni qayta taqsimlash va budjet daromadlarini shakllantirish uchun foydalanilayotgan metodlarning asosiylari bo'lib hisoblanadi. Bu metodlar o'rtasidagi nisbat mamlakatlar va davrlar bo'yicha turlicha bo'lib, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy va bosh-qa qarama-qarshiliklarning kuchlilik darajasi, davlatning moliya-viy siyosati va moliyaviy ahvoli bilan belgilanadi.

Milliy daromadni qayta taqsimlashning asosiy metodi soliq-lar hisoblanadi. Ular yordamida budjet daromadlarining asosiy salmog'i ta'minlanadi. Turli mamlakatlar markaziy budjetlari-ning daromadlarida soliq tushumlari qariyb 90%ni tashkil etadi. Federatsiya a'zolari va mahalliy budjetlar daromadlarida soliq-larning salmog'i nisbatan pastroqdir. Bu budjetlar biriktiril-gan (tegishli budjetlarning o'z daromadlari) va tartibga keltiruv-chi (budjet tizimining yuqori bo'g'inidan quyi bo'g'iniga berila-digan daromadlar) daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

O'zining moliyaviy ahamiyatiga ko'ra davlat kreditlari ham byudjet daromadlari hisoblanadi. Kelgusi yil uchun budjet tuzilayot-gan paytda budjet defitsiti mavjud bo'lsa (vujudga kelsa), davlat ana shu metoddan foydalanadi. Davlat mamlakatda moliyaviy ahvol-ning murakkablashishi va budjet defitsiti

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter

hajmining oshishiga mu-vofiq ravishda davlat kreditiga murojaat qiladi. Bunday kreditlarni olishning ikki yo'li mavjud:

1) davlat nomidan qimmatli qog'ozlar chiqarish yo'li bilan jismoniy va yuridik shaxslardan davlat qarzlarini olish;

2) Markaziy bank va boshqa kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar.

Davlat kredit operatsiyalari hajmining oshishi davlat qarzi-ning oshishiga olib keladi. O'z navbatida, davlat qarzlarini soliq-lar bilan chambarchas bog'liq. Uni uzish (qaytarish) va foizlarini to'-lash, asosan, soliq to'lovlari yoki davlatning yangi kredit opera-tsiyalari hisobidan amalga oshiriladi.

Favqulodda holatlarda, soliq to'lovlari va davlat kreditlari-ni olish murakkablashganda davlat qog'oz pullar emissiyasiga mu-rojaat qiladi. Bu budjet daromadlarini to'ldirishning eng no-qulay metodidir. Chunki bu metodning qo'llanilishi tegishli tar-tibda tovar bilan ta'minlanmagan pul massasining o'sishiga va inflyatsion jarayonlarning kuchayishiga, pirovardida esa, og'ir ij-timoiy-iqtisodiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Budjet daromadlari mamlakat yalpi ichki (milliy) mahsuloti-ni taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy jarayonining element-laridan biri bo'lib, oraliq (tranzit) xarakterga ega. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan daromadlar va jamg'arma-larning bir qismini budjetga o'tkazilishi natijasida vujudga keladi. Budjet daromadlarining moddiy-buyumlashgan mazmunini davlatning ixtiyoriga borib tushgan pul mablag'lari tashkil etadi. Bu moliyaviy (budjet) kategoriyaning namoyon bo'lish shakli byud-jetga borib tushuvchi turli soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va ajratmalardan iborat.

Miqdoriy jihatdan budjetning daromadlari yaratilgan (ish-lab chiqarilgan) yalpi ichki (milliy) mahsulotda (milliy daromad) davlatning ulushini ko'rsatadi. Ularning absolyut hajmi va salmog'i mamlakatning yalpi ichki (milliy) mahsuloti (milliy daromadi)ning umumiy hajmi, u yoki bu davrda davlatning oldida tur-gan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa

vazifalar bilan belgilanadi. Ana shularga muvofiq ravishda budjetga mablag'larni to'plash miqdori va ularni undirishning shakl va metodlari aniqlanadi.

Davlat byudjeti daromadlari qismini shakllantirish tartibi va uning manbalari "Byudjet tizimi to'g'risidagi" Qonunda(11-modda) ko'rsatib berilgan.

Unda davlat byudjeti daromadlarining quyidagi manbalari ko'rsatilgan:

1) qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar;

2) davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarini joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar (Davlat aktsiyadorlik kompaniyalari foydasidan to'lanadigan dividendlar, davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishdan olinadigan daromadlar, davlat mulki hisoblangan ob'ektlarni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar, davlat ob'ektlarini sotishdan olinadigan daromadlar va x.k.);

3) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;

4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

5) rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlar;

6) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar hisobiga shakllantiriladi.

Budjet daromadlarini shakllantirish jarayonining quyidagi printsiplarga asoslanishi maqsadga muvofiqdir:

– sub'ektlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishiga rioya etish (sharoit yaratish). Buning ma'nosi shundaki, sub'ektlarga tegishli bo'lgan mablag'larning bir qismini budjetga olinishi ularning mustaqil rivojlanishiga

salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Bu chega-radan oshib ketish sub'ektlarning mustaqilligini yo'qotishiga, kasodga uchrash hollarining vujudga kelishiga, ichki rezervlarni qidirib topishga va ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini ta'minlashga intilishning susayishiga, xufyona iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi;

– sub'ektlarning xatti-harakati va intilishiga bog'liq bo'lmagan holda vujudga kelgan daromadlarning to'liq yoki qisman byud-jetga olinishi. Ma'lum bir xarajatlarni amalga oshirmasdan turib olingan barcha daromadlar sub'ektlarning ixtiyoriga qoldi-rilmasdan davlatning ixtiyoriga o'tishi kerak. Bu printsipning ta'-siri ostiga sub'ektlar ma'muriyatining noto'g'ri, noqonuniy harakati (masalan, davlat standartlarini buzish va boshqalar) natijasida olingan daromadlar ham kiritilmog'i lozim;

– ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqa maqsadlar uchun kor-xonaning rejalashtirilgan ehtiyojidan ortgan summalarni byudjetga olish. Bu printsip budjet daromadlarini davlat korxonalarining mablag'lari hisobidan tashkil etishda qo'llanilishi mumkin. U davlat korxonalarining moliyaviy holatini tartibga soladi va bir vaqtning o'zida ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishda davlatning manfaatlarini ta'minlaydi;

– budjet mexanizmining rag'batlantiruvchi ta'sirini ta'minlash. Sub'ektlar ixtiyoridan mablag'larning budjetga olinishi ular-ning samarali faoliyat ko'rsatishini rag'batlantirishi kerak. Bu erda qo'yilgan vazifa faqatgina budjet daromadlarini miqdoriy jihatdan ta'minlash emas, balki shu orqali korxonada faoliyat ko'rsatayotgan mehnat jamoalarining manfaatlariga, ular faoliyatining sifat ko'rsatkichlariga to'lovlarning ta'sirchanligini kuchaytirishdir;

– budjet daromadlarini shakllantirishda ulushli ishtirok etish. Bu printsip aholi mablag'lari hisobidan budjet daromadlarini shakllantirishda qo'llanilib, uning natijasida aholi daromadlarining bir qismi ular olgan daromadlarining darajasiga bog'liq ravishda budjetga o'tkaziladi.

Budjet daromadlarining asosiy qismi soliqlar yordamida undirilishi tufayli bu jarayonda quyidagi printsiplardan foydalaniladi:

- soliqlarning budjetga olinishi mamlakat milliy boyligi manbalarining tugashiga olib kelmasligi kerak;
- soliqlar ularni to'lovchilar o'rtasida teng (adolatli) taqsimlanmogi lozim;
- soliqlarning ishlab chiqaruvchilar aylanma fondlari hajmiga ta'sir ko'rsatmasligi;
- soliqlarning sof daromadga nisbatan hisoblanishi;
- davlat uchun soliqlarning undirilishi iloji boricha arzonroq bo'lishi lozim;
- soliqlarning undirilish jarayoni xususiy sektorni siqib chiqarmasligi kerak.

2 Davlat budjeti daromadlarini oshirishning tashkiliy – iqtisodiy va huquqiy asoslari

Davlat budjetining daromadlari mamlakat yalpi ichki (milliy) mahsulotini taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy jarayonining elementlaridan biri bo'lib, ular oraliq (tranzit) xarakterga ega. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan daromadlar va jamg'armalarning bir qismini budjetga o'tkazilishi natijasida vujudga keladi. Budjet daromadlarining moddiy-buyumlashgan mazmunini davlatning ixtiyoriga borib tushgan pul mablag'lari tashkil etadi. Bu moliyaviy (budjet) kategoriyaning na-moyon bo'lish shakli budjetga borib tushuvchi turli soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va ajratmalardan iborat.

Miqdoriy jihatdan Davlat budjetining daromadlari yaratilgan (ishlab chiqarilgan) yalpi ichki (milliy) mahsulotda (milliy daromadda) davlatning ulushini ko'rsatadi. Ularning absolyut hajmi va salmog'i mamlakatning yalpi ichki (milliy) mahsuloti (milliy daromadi)ning umumiy hajmi, u yoki bu davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa

vazifalar bilan belgilanadi. Ana shularga muvofiq ravishda Davlat budjetida mablag'larni kontsentratsiya qilish (to'plash, yig'ish) miqdori va ularni undirishning shakl va metodlari aniqlanadi.

Budjet daromadlarini shakllantirish jarayonining quyidagi printsiplarga asoslanishi maqsadga muvofiqdir:

- soliqlarning budjetga olinishi mamlakat milliy boyligi manbalarining tugashiga olib kelmasligi kerak;

- soliqlar ularni to'lovchilar o'rtasida teng (adolatli) taqsimlanmogi lozim;

- soliqlarning ishlab chiqaruvchilar aylanma fondlari hajmiga ta'sir ko'rsatmasligi;

- soliqlarning sof daromadga nisbatan hisoblanishi;

- davlat uchun soliqlarning undirilishi iloji boricha arzonroq bo'lishi lozim;

- soliqlarning undirilish jarayoni xususiy sektorni siqib chiqarmasligi kerak;

- sub'ektlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishiga rioya etish (sharoit yaratish). Buning ma'nosi shundan iboratki, sub'ektlarga tegishli bo'lgan mablag'lar bir qismining Davlat budjetiga olinishi ularning mustaqil rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Bu chegaradan oshib ketish sub'ektlarning mustaqilligini yo'qotishga, kasodga uchrash hollarining vujudga kelishiga, ichki rezervlarni qidirib topishga va ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini ta'minlashga intilish susayadi, xufyona iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi;

- sub'ektlarning xatti-harakati va intilishiga bog'liq bo'lmagan holda vujudga kelgan daromadlarning to'liq yoki qisman budjetga olinishi. Ma'lum bir xarajatlarni amalga oshirmasdan turib olingan barcha daromadlar sub'ektlarning ixtiyoriga qoldirilmasdan davlatning ixtiyoriga o'tishi kerak. Bu

printsipning ta'siri ostiga sub'ektlar ma'muriyatining noto'g'ri, noqonuniy harakati (masalan, davlat standartlarini buzish va boshqalar) natijasida olingan daromadlar ham kiritilmog'i lozim;

– ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqa maqsadlar uchun korxonaning rejalashtirilgan ehtiyojidan ortgan summalarni budjetga olish. Bu printsip davlat budjeti daromadlarini davlat korxonalarining mablag'lari hisobidan tashkil etishda qo'llanilishi mumkin. U davlat korxonalarining moliyaviy holatini tartibga soladi va bir vaqtning o'zida ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishda davlatning manfaatlarini ta'minlaydi;

– budjet mexanizmining rag'batlantiruvchi ta'sirini ta'minlash. Sub'ektlar ixtiyoridan mablag'larning budjetga olinishi ularning samarali faoliyat ko'rsatishini rag'batlantirishi kerak. Bu erda qo'yilgan vazifa faqatgina Davlat budjeti daromadlarini miqdoriy jihatdan ta'minlash emas, balki shu orqali korxonada faoliyat ko'rsatayotgan mehnat jamoalarining manfaatlariga, ular faoliyatining sifat ko'rsatkichlariga to'lovlarning ta'sirchanligini kuchaytirishdir;

– budjet daromadlarini shakllantirishda ulushli ishtirok etish. Bu printsip aholi mablag'lari hisobidan budjet daromadlarini shakllantirishda qo'llanilib, uning natijasida aholi daromadlarining bir qismi ular olgan daromadlarining darajasiga bog'liq ravishda budjetga o'tkaziladi.

Davlat budjetining daromadlari o'zlarining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to'lovlarning turi, mablag'larning tushish shakli va ularni budjetga undirish metodlariga muvofiq klassifikatsiya qilinishi mumkin.

Eng avvalo, Davlat budjetining daromadlari o'zlarining manbalariga ko'ra quyidagi uch guruhga bo'linadi:

- solikli daromadlar;
- nosolikli daromadlar;

- tiklanmaydigan (qaytarilmaydigan) tarzda o'tkaziladigan pul mablag'lari.

Budjetning solikli daromadlari tarkibi mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq umumdavlat soliqlari va yig'implari, mahalliy soliqlar va yig'implar, bojxona bojlari, boj yig'implari va boshqa boj to'lovlari, davlat boji, penya va jarimalardan iborat.

Nosoliqli daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- davlat mulkidan foydalanishdan olingan daromadlar (soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'implardan so'ng);
- budjet tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan haqli (to'lovli) xizmatlardan kelgan daromadlar (soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'implardan so'ng);
- fuqarolik-huquqiy, ma'muriy va jinoiy choralarni qo'llash natijasida olingan mablag'lar, jumladan, jarimalar, konfiskatsiyalar, kompensatsiyalar va davlat sub'ektlariga etkazilgan zararlarni tiklash bo'yicha olingan mablag'lar va majburiy undirilgan boshqa mablag'lar;
- moliyaviy yordam ko'rinishidagi daromadlar (budjet ssudalari va budjet kreditlaridan tashqari);
- boshqa nosoliqli daromadlar.

Budjet daromadlarining tarkibiga tushumlarning quyidagi ko'rinishlari hisobga olinishi mumkin:

- davlat mulkini vaqtinchalik foydalanishga berish natijasida ijara haqi yoki boshqa ko'rinishda olinadigan mablag'lar;
- kredit muassasalaridagi hisob varaqlarida budjet mablag'larining qoldig'i bo'yicha foizlar ko'rinishida olinadigan mablag'lar;
- davlat mulkiga tegishli bo'lgan mol-mulkni garovga yoki ishonchli

boshqaruvga berishdan olinadigan mablag'lar;

- qaytarish va haq olish asosida boshqa budjetlarga, xorijiy davlatlarga yoki boshqa yuridik shaxslarga berilgan budjet mablag'laridan foydalanganlik uchun haq;
- davlatga qisman tegishli bo'lgan xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalining hissasiga yoki aksiyalar bo'yicha dividendlarga to'g'ri keladigan foyda ko'rinishidagi daromadlar;
- davlat unitar korxonalari foydasining bir qismi (solliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan solliq va yig'implardan so'ng);
- davlatga tegishli bo'lgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olinadigan qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa daromadlar.

Budjetning daromadlar qismini to'ldirishning manbalaridan biri budjet tizimida boshqa darajada turgan budjetdan dotatsiyalar, subventsiyalar va subsidiyalar yoki mablag'larni qayta-rilmaslik va tiklamaslikning boshqa shakllarida olinadigan moliyaviy yordamdir. Bunday moliyaviy yordamlar mablag'larni oluvchi budjetning daromadlarida o'z ifodasini topishi kerak. Jis-moniy va yuridik shaxslardan, halqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar hukumatlaridan qaytarilmaydigan yoki tiklanmaydigan shaklda o'tkazilayotgan mablag'lar ham budjetning shunday daromadlari tarkibiga kiradi.

Hozirgi amaliyotda Davlat budjetining daromadlari quyidagi tartibda klassifikatsiya qilinayapti:

1. To'g'ri (bevosita) solliqlar. Ularning tarkibiga yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan solliq; savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona solliq to'lovidan Davlat budjetiga ajratmalar; yagona solliq to'lovidan (mikrofirmalar va kichik korxonalar bilan birgalikda) Davlat budjetiga ajratmalar; jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan solliq va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning daromadidan

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter
olinadigan qat'iy soliq kiradi.

2. Egri (bilvosita) soliqlar. Bu soliqlarning tarkibi qo'shilgan qiymat solig'i; aktsizlar; bojxona bojlari; jismoniy shaxslardan olinadigan yagona boj to'lovi; transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga jismoniy shaxslardan olinadigan soliqdan iborat.

3. Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i. Bu guruhga kiruvchi soliqlar va to'lovlar mol-mulk solig'i; er solig'i; er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni o'z ichiga oladi.

4. Ustama foydadan olinadigan soliq.

5. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq.

6. Boshqa daromadlar.


O'zining ijtimoiy-iqtisodiy belgisiga ko'ra, Davlat budjetining daromadlari ikki guruhga bo'linishi mumkin:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan olinadigan daromadlar;
- aholidan tushumlar.

Mulkchilik shakliga ko'ra, Davlat budjetining daromadlari quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- nodavlat sektordan olinadigan daromadlar;
- davlat xo'jaliklaridan olinadigan daromadlar;
- aholidan olinadigan mablag'lar.

1-rasm



Soliqqa tortishning ob`ektiga ko'ra soliq guruhlari

Budjet daromadlarining yuqorida sanab o'tilgan har bir guruhlar daromadlarning manbalari, to'lovlarning turlari va hokazolar bo'yicha kichik guruhlarga bo'linishi ham mumkin. Masalan, davlat xo'jaliklaridan olinadigan daromadlarga davlat korxona va tashkilotlarining to'lovlari, davlat mulkini sotishdan olinadigan daromadlar, davlat tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlardan olinadigan daromadlar kiradi. Aholidan budjetga kelib tushadigan

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter

mablag'lar esa soliqlar va boshqa ixtiyoriy to'lovlardan iborat bo'lishi mumkin.

O'z navbatida, har bir kichik guruhlariga biriktirilgan Davlat budjetining daromadlari tushumlarning alohida turidan iborat. Masalan, davlat korxonalari tomonidan budjetga o'tkaziladigan daromadlarning tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i, aktsizlar, daromad (foyda) solig'i va boshqalar kiradi. Shuningdek, davlat mulkidan olinadigan daromadlar tarkibi bojxona daromadlaridan, egasiz va musodara qilingan mol-mulkni, talab qilib olinmagan yuklar va pochta jo'natmalarini, meros huquqi bo'yicha davlatga o'tgan mol-mulklarni realizatsiya qilishdan olingan tushumlardan iborat. Davlat tashkilotlari va muassasalari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlarga davlat avtomobil inspeksiyalari tomonidan undiriladigan yig'imlar, tovar belgilarini qayd etganlik uchun yig'imlar, o'lchov asboblarini davlat tekshiruvidan o'tkazilganligi uchun haq, sud va arbitraj organlari hamda notarial idoralari tomonidan aholiga ko'rsatilgan xizmatlar uchun olinadigan haq va boshqalar kiradi.

Davlat budjetining daromadlari majburiy yoki ixtiyoriy tarzda (shaklda) mobilizatsiya (jalb) qilinishi mumkin. Bunda daromadlarni majburiy shaklda mobilizatsiya (jalb) qilish hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Ixtiyoriy shakldagi to'lovlarga davlat obligatsiyalarini va pul-buyum lotereyalarini realizatsiya qilishdan olingan tushumlar kiradi. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi majburiylik yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ma'lum bir mablag'lar belgilangan muddatlarda budjetga o'tkazilishi zarurligini anglatadi. U yoki bu to'lovni qonun tomonidan majburiy deb e'tirof etilishi to'lanmagan summalarning majburiy undirilishini ko'zda tutadi. Bu holat budjetning ijrosi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lib, mablag'larni to'liq va o'z vaqtida budjetga mobilizatsiya qilishga (jalb etishga) yo'naltirilgan.

Sub'ektlarning daromadlari Davlat budjeti ixtiyoriga ikki xil metodlarni qo'llash evaziga olinishi mumkin:

- 1) solikli metodlar;
- 2) nosolikli metodlar.

Solikli metodlar uchun mablag'larning davlat budjeti foydasiga aniq belgilangan miqdorlarda va oldindan o'rnatilgan muddatlarda undirilishi xarakterlidir. Soliqlarning undirilishi mamlakat yalpi ichki (milliy) mahsuloti va milliy daromadining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi bilan bog'liq. Ular yordamida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholiga tegishli bo'lgan mablag'larning bir qismi davlat ixtiyoriga o'tkaziladi. Soliqlarning tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i, aktsizlar, daromad (foyda) solig'i, er solig'i, mol-mulk solig'i va boshqa soliqlar kiradi.

Nosolikli daromadlar davlatga tegishli bo'lgan korxona va tashkilotlardan olinadigan to'lovlardir.

Davlat mulkiga aylanadigan va qaytarilishini talab etmay-digan mablag'lar ham Davlat budjetining daromadlari bo'lishi mumkin. Biroq ayrim to'lovlar davlatning ixtiyoriga vaqtinchalik foydanish uchun o'tkazilishi ham mumkin. Bunday holda davlat olingan mablag'larni sarf etsada, u bu mablag'larni belgilangan muddatlarda va to'liq ravishda qaytarishga majbur. Ana shunday budjet daromadlarining ko'rinishlaridan biri davlat obligatsiyalarini realizatsiya qilishdan olingan tushumlar hisoblanadi. Davlat budjetining daromadlariga ular shartli ravishda, faqat shu yilning budjeti daromadlari nuqtai-nazaridan kiritilishi mumkin.

Davlat budjeti daromadlarining deyarli barchasi sarflanish nuqtai-nazaridan oldindan mo'ljallangan maqsadlarga ega emas. Ular umumiy fondga tushiriladi va odatdagi moliyalashtirish tartibida foydalaniladi. Budjet daromadlarining faqat ba'zi birlarigina oldingan belgilangan maqsadlar uchun mo'ljallangan. Ularning tarkibiga ijtimoiy sug'urta badallarini kiritish mumkin.

Soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va majburiy ajratmalarning alohida shakllari va turlarining yig'indisi davlat budjeti daromadlarining yagona

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter

tizimini shakllantiradi. Turli sub'ektlardan kelib tushadigan Davlat budjetining daromadlari umumdavlat ehtiyojlarini ta'minlab, bir-biri bilan o'zaro bog'langandir.

Milliy iqtisodiyotda qo'llanilayotgan Davlat budjeti daromadlari tizimining samaradorligi mablag'larning budjetga tushumini tashkil etishga bevosita bog'liq. Bu narsa o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- budjetga tegishli bo'lgan daromadlarni (soliqlar, to'lovlar, bojlar; ajratmalar va boshqalar) huquqiy jihatdan rasmiylashtirish;
- mablag'lar tushumining hajmi va muddatlarini aniqlash tartibi;
- daromadlarni (to'lovlarni) budjetga o'tkazish tartibi;
- budjetga daromadlarni to'lovchilarni hisobga olish;
- budjetga daromadlarni to'lovchilarning javobgarligi;
- budjetga daromadlarni o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimi;
- budjetga daromadlarni undirishda soliq organlarining huquq va majburiyatlari.

Yuqoridagilarni ishlab chiqish va amalga oshirishda davlat va budjetga daromadlarni to'lovchilar o'rtasidagi manfaatlarning oqilonaligini ta'minlashga katta e'tibor bermoq lozim.

1.3. Xorijiy mamlakatlarda davlat byudjeti daromadlarini nazariy asoslari

Xorijiy mamlakatlarda davlat byudjeti daromadlarini shakllanishini ko'radigan bo'lsak, rivojlangan mamlakatlarda ham asosan, davlat byudjeti daromadlarining salmoqli hissasini soliqlar tashkil qilishini ko'rishimiz mumkin.

Jahon soliq amaliyotining tajribalarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan xorijiy davlatlarda, birinchi navbatda, «kuchli ettilik»

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter

deb atalmish mamlakatlarda davlat byudjeti daromadlarining 70-90 foizdan ortiq qismi soliq tushumlaridan iboratdir.

Ma'lumki, rivojlangan mamlakatlar ichida iqtisodiy salohiyati jihatidan birinchi o'rinni AQSh egallaydi. AQSh yalpi ichki mahsulotining miqdori 15 trln. AQSh dollarini tashkil qiladi. Iqtisodiy salohiyati jihatidan ikkinchi o'rinni Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlar guruhi egallaydi. Ularning yalpi ichki mahsuloti 12,5 trln. AQSh dollarini tashkil qiladi.

AQShda davlat byudjeti daromadlarining 70 foizdan ortiq qismini soliqlar tashkil qiladi. Shunisi xarakterliki, soliq tushumlari ichida aholidan olinadigan daromad solig'i asosiy o'rinni egallaydi. Uning AQSh Federal byudjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog'i 44 foizga yaqinni tashkil qiladi. Mazkur soliq jismoniy shaxslardan va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan individual korxonalardan olinadi. Soliqqa tortishning sub'ekti bo'lib, alohida shaxs yoki oila hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, standart chegirmalar faqat daromad darajasi past bo'lgan fuqarolar uchun qulay hisoblanadi. Bu esa, fuqarolarning mazkur toifasini ijtimoiy jihatdan himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasida shakllantirilgan ijtimoiy xarakterdagi bozor iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri aholining kam ta'minlangan qatlamlarini himoya qilish hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, AQSh amaliyotida qo'llanilayotgan standart chegirmalarni respublikamiz sharoitida qo'llash masalasini ilmiy jihatdan o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shunisi xarakterliki, birinchidan, AQShda fuqarolardan olinadigan daromad solig'ining stavkalari shtatlar va munitsipialitetlar miqyosida tabaqalashtirilgan va stavkalar 0 foizdan 26 foizgacha bo'lgan darajani tashkil etadi; ikkinchidan, ayrim AQSh shtatlarida (Pensilvaniya, Indiana shtatlari) mutanosib soliq stavkalari ham qo'llaniladi; uchinchidan, AQShda fuqarolardan olinadigan daromad solig'i stavkalarining soni va darajasini

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter

pasaytirish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 1986 yilga qadar AQShda fuqarolardan olinadigan daromad solig'ining 14 ta stavkasi mavjud edi va ularning maksimal darajasi 50 foizni tashkil qilar edi.

Ayni vaqtda shuni alohida ta'kidlash lozimki, AQSh Federal byudjetida fuqarolardan olinadigan daromad solig'ini eng yuqori salmoqni egallashning birlamchi sababi aholining turmush darajasini va, binobarin, daromad darajasining yuqori ekanligi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda AQShda har bir fuqaroga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot miqdori 36200 AQSh dollarini tashkil etadi.

AQShda fuqarolardan olinadigan daromad solig'ining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, AQSh rezidentlari daromadlarining umumiy summasidan soliq to'lasalar, norezidentlar faqat AQSh hududida olgan daromadlaridan soliq to'laydilar. AQShda mamlakatda 6 oy va undan ortiq muddat yashayotgan fuqarolar rezidentlar hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat qarzini keskin ko'payishi hukumatning qimmatli qog'ozlarini sotish natijasida olingan tushumlarning davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ahamiyatini oshirishiga sabab bo'ldi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar davlat byudjeti daromadlari hajmida egri soliqlar ham muhim o'rin tutadi, hozirgi vaqtda mazkur mamlakatlarda egri soliqlarning, asosan 3 turi keng qo'llanilmoqda: aktsizlar, boj soliqlari va fiskal monopol soliqlar.

Shunisi xarakterliki, egri soliqlarning byudjet daromadlari hajmidagi salmog'i mamlakatlarda bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, Frantsiyada davlat byudjeti daromadlarining 45 foizga yaqin qismi qo'shilgan qiymat solig'idan keladigan tushumlar summasiga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich Buyuk Britaniya va Italiyada 20 foizga yaqin miqdorni tashkil qiladi.

Egri soliqlar ichida qo'shilgan qiymat solig'i yuqori salmoqni egallaydi. Mazkur soliq Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlarda mavjuddir.

Mazkur soliq etakchi ilg'or mamlakatlardan faqat AQSh va Yaponiyada qo'llanilmaydi.

Boj soliqlari egri soliqlarning uchinchi asosiy turini tashkil qiladi va ular tovarlarni eksport va import qilishda olinadi. Boj soliqlari tovarlarning bahosiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli boj soliqlarini sezilarli darajada oshirilishi tovarlarni jahon bozoridagi bahosining oshishiga olib keladi. Natijada ularni sotish qiyinlashadi va mamlakatning eksport tushumi kamayadi. Xalqaro amaliyotdan ma'lumki eksport tushumlarini surunkali tarzda kamayishi eksportga yo'naltirilgan korxonalarning moliyaviy ahvolini keskin yomonlashuviga olib keladi. Bu esa, pirovard natijada, ularning soliq bazasiga salbiy ta'sir qiladi va buning oqibatida soliq tushumlari kamayadi. Demak, boj solig'i yuridik shaxslarning soliqqa tortish bazasiga bevosita ta'sir qiladigan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Bir mamlakat hukumati tomonidan ikkinchi bir mamlakatdan import qilinayotgan tovarlarga nisbatan boj soliqlarining joriy qilinishi, albatta, eksportyor mamlakati tomonidan javob choralarini ko'rilishiga olib keladi. Ya'ni, bu mamlakat ham birinchi mamlakatda import qilinayotgan tovarlarga nisbatan boj soliqlarini o'rnatadi.

Boj soliqlariga xos bo'lgan va biz yuqorida qayd qilgan kamchiliklar boj soliqlarining xalqaro savdo operatsiyalarini tartibga solishdagi ahamiyatini pasayishiga olib keldi. Buning natijasida rivojlangan mamlakatlar davlat byudjetlarining daromadlari hajmida boj soliqlarining salmog'i pasayib bordi. Hozirgi vaqtda mazkur mamlakatlar davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmida boj soliqlarining salmog'i bir foizdan to'rt foizgacha bo'lgan miqdorni tashkil qiladi.

Rivojlangan ilg'or mamlakatlarda fiskal monopol soliqlardan davlat byudjetining daromadlari sifatida foydalaniladi. Bu soliqlar davlat monopoliyasi mavjud bo'lgan sohalarga mansub korxonalardan undiriladi. Mazkur soliqlar

Frantsiya, Italiya, Germaniya va Yaponiyada doimiy ravishda undiriladi. Ular Buyuk Britaniyada mavjud emas.

Kuchli ettilikka a'zo bo'lgan rivojlangan mamlakatlardan biri Kanada hisoblanadi. Kanadada soliq tushumlari davlat byudjeti daromadlarining 90 foizdan ortiq qismini tashkil qiladi. Shuning 45 foizdan ortiq qismi aholidan olinadigan daromad solig'i hissasiga to'g'ri keladi.

Kanada davlat byudjeti daromadlarining tarkibida, salmog'iga ko'ra, aholidan olinadigan daromad solig'idan keyingi o'rinlarni korporatsiyalardan olinadigan soliq, ijtimoiy sug'urta fondiga o'tkaziladigan badallar va aktsizlar egallaydi. Xalqaro valyuta fondi (XVF) hamda Jahon tiklanish va taraqqiyot bankining ekspertlari tomonidan Sharqiy Evropa mamlakatlari moliyaviy islohotlar muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilayotgan mamlakatlar sifatida e'tirof etilgan. Shu boisdan ham biz Sharqiy Evropadagi bir qator davlatlarning byudjet amaliyotiga xos bo'lgan ijobiy jihatlarni ko'rib chiqamiz.

Sharqiy Evropa mamlakatlari davlat byudjeti daromadlarining 90 foiziga yaqin qismi soliqlar hisobiga shakllanadi. Shunisi xarakterliki, Bolgariya, Vengriya, Polsha va Chexiyada ijtimoiy sug'urta fondiga to'lanadigan badallar davlat byudjetining asosiy daromad manbai hisoblanmaydi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Sharqiy Evropa mamlakatlarining ko'pchiligida davlat byudjeti xarajatlarini qoplash uchun jalb etilgan ichki manbalarning etishmasligi kuzatildi. Bu esa, byudjet daromadlarini shakllantirishda tashqi manbalardan foydalanishga olib keldi. Ayrim davlatlarda tashqi qarzni to'lay olmaslik holatlari ham yuzaga keldi. Masalan, Polshada XX asrning 90-yillarida qarzni to'lay olmaslik holati yuzaga keldi. Polshani bunday og'ir ahvoldan qutqarish imkoni xorijiy kreditorlar tomonidan o'z qarzlarining 50 foizini voz kechishi natijasida yuzaga keldi. Mana shunday holat Bolgariyada ham kuzatildi. Masalan, 1997 yilda davlat qarzini to'lash bilan bog'liq xarajatlar jami byudjet xarajatlarining 43,1 foizini tashkil qildi. Bu

summaning uchdan bir qismi tashqi qarzni to'lash xarajatlariga, uchdan ikki qismi esa ichki qarzlarni to'lash xarajatlariga to'g'ri keldi.

Shunisi xarakterliki, Rossiya Federal byudjeti daromadlarining tarkibida yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq summasi atigi 7,6 foizni, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i esa 5,3 foizni tashkil etadi. To'g'ri soliqlarning asosiy turlari hisoblangan mazkur ikki soliq turi bo'yicha soliq tushumlarining byudjet daromadlari hajmidagi salmog'ini nisbatan kichik ekanligining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

1) Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha keng imtiyozlar tizimi joriy qilingan.

2) Yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq stavkasining darajasini nisbatan past ekanligi. Federal byudjetga kelib tushadigan mazkur soliqlarning stavkasi 13 foizni tashkil etadi. Federatsiya sub'ektlari tomonidan o'rnatilgan ikkinchi stavkaning darajasi 22 foizdan oshmasligi kerak.

Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

1) Rivojlangan ilg'or mamlakatlarda davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismi to'g'ri soliqlar hisobidan shakllanmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa, davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismini egri soliqlardan olingan tushumlar tashkil qiladi.

2) Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda hukumatning qimmatli qog'ozlarini sotishdan olingan mablag'lar davlat byudjeti daromadlari hajmida sezilarli salmoqni egallaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy qismida esa bu daromad manbaining byudjet daromadlari tarkibidagi salmog'i juda kichik. Mazkur holat aholi va korxonalarning hukumatga nisbatan bo'lgan ishonchini qay darajada ekanligi bilan belgilanadi.

3) Rivojlangan mamlakatlarda aholining daromad darajasini yuqori ekanligi va aholidan olinadigan daromad solig'ini, asosan, progressiv

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter

stavkalarda undirilishi mazkur soliqlardan olinadigan tushumlarning davlat byudjeti daromadlarining tarkibida yuqori salmoqqa ega bo'lishiga olib keldi.

II BOB. DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARI SHAKLLANISHINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

2.1. Davlat budjeti daromadlari shakllantirishda soliqlar salmog'i tahlili

Soliqlar majburiy pullik to'lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildirib, bu munosabatlar soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o'z mulkiga aylantiruvchi sub'ekt sifatida davlat o'rtasida sodir bo'ladi. Korxona va tashkilotlar tovar mahsulotlarini ishlab chiqarganida va sotganida, aholiga turli xizmatlarni ko'rsatganida, ishlar bajarganida yoki bozorlarda oldi-sotdi qilganda ham pul to'lovlarini amalga oshiradi. Lekin bu munosabatlarning hammasi ham soliq munosabati bo'la olmaydi. Soliq munosabatida davlat mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlash yo'li bilan majburan davlat budjetiga mablag' to'plash jarayonini amalga oshiradi.

Soliqlarning o'ziga xos belgilari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

- majburiylik;
- xazina to'plash;
- qat'iylik va doimiylik;
- aniq soliq to'lovchi uchun ekvivalentsizlik.

Quyida biz O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari tarkibining oxirgi uch yillik, ya'ni 2010-2012 yillardagi ko'rsatkichlarini ko'rishimiz mumkin.

Soliqlar davlat budjetiga va davlat pul fondlariga kelib tushadigan, majburiy harakterga ega bo'lgan pul munosabatlaridir. SHuningdek, soliqlar iqtisodiy kategoriya bo'lganligi uchun bozor iqtisodiyoti munosabatlari, shu jumladan, moliyaviy munosabatlar tarkibiga kiradi. Bozor iqtisodiyoti erkin iqtisodiyotdir, ya'ni har bir huquqiy shaxs, tadbirkor o'z tovariga erkin baho

belgilashi, mahsulot etkazib beruvchini ixtiyoriy topishi va o'zi iste'molchini topib, unga mahsulotini sotish huquqiga ega. SHuning uchun davlat ular daromadlarining bir qismini taqsimlab, budjetga oddiy ajratma sifatida ololmaydi. Soliq shaklida daromadlarni undirish uchun qonun chiqaruvchi organ(Oliy Majlis)ning qarori zarur, ya'ni qonuniy asosda undirilgan to'lov budjetga o'tadi. Erkin iqtisodiyot sharoitida soliqlar ham erkin, ochiq, aniq bo'ladi, demokratik to'lovga aylanadi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarining 2010-2012 yillardagi tarkibining tahlili

(mlrd.so'mda)

No'	Ko'rsatkichlar	2010yil	2011yil	o'zgarishi %	2012yil	o'zgari shi%
I.	Daromadlar (Davlatning maqsadli pul jamg'armalari daromadlaridan tashqari)	13 116,4	16 178,6	23,3	20 614,1	27,4
1.	To'g'ri soliqlar	3 420,6	4 238,7	23,9	5 196,4	22,6
1.1	Yuridik shaxslarning foydasidan soliq	645,5	825,01	27,8	917,2	11,2
1.2	Savdo-sotiq va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovi	297,03	527,5	77,6	703,5	33,4
1.3	Mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi	346,3	378,4	9,2	538,5	42,3
1.4	Jismoniy shaxslarning daromadiga soliq	↑	1 789,7	X	2 372,7	32,6
1.5	Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq	139,1	187,5	34,8	218,1	16,3
1.6	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	457,6	530,6	15,9	446,4	-15,9
2.	Egri soliqlar	6 973,8	8 656,9	24,1	11 187,8	29,2
2.1	Qo'shilgan qiymat solig'i	3 987,9	5 228,8	31,1	6 784,5	29,8
2.2	Aksiz solig'i	2 191,1	2 481,8	13,3	3 115,5	25,5
2.3	Bojxona boji	479,3	515,9	7,6	732,4	41,9
2.4	Jismoniy shaxslarning transport vositalari uchun benzin, dizel va gaz yoqilg'isidan foydalanganlik uchun soliq	315,5	430,3	36,4	555,4	29,1
3.	Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	1 974,1	2 308,9	16,9	2 746,4	18,4
3.1	Mol-mulk solig'i	354,1	490,5	38,5	642,0	30,9
3.2	Er solig'i	303,9	346,9	14,4	446,0	28,6
3.3	Er qat'idan foydalanganlik uchun soliq	1 265	1 409,7	11,4	1 585,3	12,5
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun	51,2	61,8	20,7	73,1	18,3

	solig					
4.↑	Ustama foydadan soliq	25,7	142,3		250,0	75,7
5.↑	Boshqa daromadlar	722,4	831,8	15,1	1 233,5	48,3

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari tarkibida bilvosita soliqlar ulushi yuqori ko'rsatkichga ega. Qo'shilgan qiymat solig'i 2010 yilda 3 987 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2011 yilga kelib, 5 228 mlrd. so'mni tashkil qilgan. O'tgan yilga nisbatan ushbu soliq turining o'sish sur'ati 31,1 foizni tashkil qilgan. 2012 yilda esa 6 784, 5 mlrd. so'mni tashkil qilgan, bu esa o'tgan yilga nisbatan 29,8 foizga o'sishini bildiradi. Davlat byudjetida salmoqli o'ringa ega bo'lgan aksiz solig'i o'sish tendensiyasiga ega. 2010 yilda aksiz solig'ining miqdori 2 191,1 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2011 yilga kelib, 2 481,8 mlrd so'mni tashkil qilgan. 2012 yilda esa aksiz solig'ining miqdori 3 115,5 mlrd. so'mni tashkil qilgan. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan aksizosti tovarlarning miqdori yildan-yilga kamaytirilib borishi xo'jalik yurituvchi sub'etlar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'ining miqdorlari ham yildan-yilga oshib bormoqda. Mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalanish maqsadida ushbu soliqlar miqdorlari, stavkalari ham ko'rib chiqildi. 2010 yilda resurs to'lovlari va mol-mulk soliqlaridan 1 974 mlrd. so'm miqdoridagi mablag' byudjetga jalb qilingan bo'lsa, 2011 yilda 2 308, 9 mlrd. so'mni tashkil qilgan, ya'ni o'tgan yilga nisbatan 16,9 foizga o'sgan. 2012 yilda ushbu ko'rsatkich 2 746,4 mlrd. so'mni tashkil qilgan

Hozirgi kunda Soliq kodeksiga muvofiq, mamlakat soliq tizimi tarkibiga 6 ta umumdavlat (respublika) soliqlari va 6 ta mahalliy soliqlar va yig'implar kiradi. Soliq va yig'implar bir-biri bilan bog'liq bo'lib, oqibat natijasida ular huquqiy va jismoniy shaxslarning pul daromadlaridan undiriladi.

Barcha soliqlarni soliqqa tortish ob'ektiga, iqtisodiy mohiyatiga, budjet tizimi bo'g'inlari daromadlarini shakllantirishiga ko'ra hamda soliqlarni

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter
to'lovchilariga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

Soliqlar soliqqa tortish ob'ektiga ko'ra to'rt guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar,
2. Daromaddan olinadigan soliqlar,
3. Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar,
4. Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, bojxona va er osti boyliklari qiymatidan olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo'yicha ilgaridagidek, mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki mahsulotlarni yuklab yuborgan qiymat bilan o'lchanadi (QQSda). Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq ham oborotdan olinadigan soliqlar jumlasiga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga yuridik shaxslarning daromadiga (foydasiga), jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, savdo tashkilotlarining yalpi daromadidan soliqlar kiradi. Bu guruh soliqlarga infrastrukturani rivojlantirish solig'ini ham kiritish mumkin.

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga mol-mulk solig'i, ekologiya, avtomobil mashinalarini qayta sotish solig'i va boshqalar kiradi.

Yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining yagona yer solig'i va yuridik (noqishloq xo'jalik) va jismoniy shaaxslarning yer soliqlari kiradi.

Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra soliqlar egri va to'g'ri soliqlarga yoki bevosita va bilvosta bo'linadi. To'g'ri soliqlarni to'g'ridan-to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqning huquqiy jihatdan to'lovchisi ham, haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. To'g'ri soliq yukini boshqalar zimmasiga ortish holati bu erda bo'lmaydi. Bu soliqlarga daromaddan va mulkdan to'lanadigan barcha soliqlar kiradi.

To'g'ri soliqlar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri daromaddan soliq to'langanligi

uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko'p qismini ularga qoldirib, ular investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratadi va shu yo'l bilan bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga turtki beradi. Bu soliqlarning stavkalari ko'paytirilsa, korxonalarning biznes imkoniyatlari kamaya borib, iqtisodiy rivojlanishni susaytiradi. Demak, bu guruh soliqlarning stavkalari to'g'ridan-to'g'ri bozor iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'liqdir.

Egri soliqlarning yuridik jihatdan to'lovchilari mahsulot (ishlar, xizmatlarni) yuklab yuboruvchilar (xizmat ko'rsatuvchilar) bo'lib, soliqning haqiqiy og'irligi keyingi (so'nggi) iste'molchining zimmasiga tushadi, ya'ni bu erda haqiqiy soliq to'lovchi yashiringan. Bu soliqlarning summasi tovar (ish, xizmat) narhi ustiga ustama ravishda qo'yiladi. Bu soliqlarning ijobiy tomoni respublikada ishlab chiqarilgan tovarlarning chetga chiqib ketishini chegaralaydi, mamlakat ichida tovarlar ko'p bo'lishiga yordam beradi. Egri soliqlar orqali tovarlar qiymati oshirilmasa, bozorlarda ularning taqchilligi ortadi. Egri soliqlar stavkasining asosli ravishda oshirilishi korxonalar faoliyatining moliyaviy yakuniga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etmaydi, ya'ni investitsion faoliyatini qisqartirmaydi. Ammo soliq stavkasi tahlil qilinmasdan oshirib yuborilsa korxonalar sotish qiyinchiligiga uchrab, foyda olishni ham budjetga to'lovlarni ham kamaytirishi mumkin.

Bu soliqlarning yana bir tomoni - muomaladagi ortiqcha pul massasini kamaytirib, inqirozni jilovlab boradi. Biroq bu soliqlar mehnat bilan band bo'lgan aholining real daromadlarini pasaytiradi. Korxonalarda to'g'ri soliqlar stavkasini kamaytirish hisobiga berilgan imkoniyat ko'proq mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirib, tovarlar assortimentining oshishini ta'minlashi kerak.

Jahon soliq amaliyotida to'g'ri va egri soliqlar nisbatiga qarab u yoki bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasini yoki iqtisodiy qiyinchiliklarni tahlil qilib berish mumkin. Masalan. AQSH da to'g'ri soliqlar salmog'ining budjet daromadida 90 foizga yaqin bo'lishi bu erda rivojlangan bozor

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter
iqtisodiyoti amal qilayotganidan darak beradi.

Egri soliqlar tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, bojxona boji, er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq kabilar kiradi. YUqorida aytib o'tilganidek, to'g'ri va egri soliqlar yagona soliq tizimini tashkil etib, bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Umumiy soliq summasi o'zgarmagan holda birining stavkasini kamaytirish ikkinchisining stavkasini oshirishni talab etadi.

Budjet tizimi bo'g'inlari daromadlarini shakllantirishiga ko'ra soliqlarning umumdavlat (respublika) va mahalliy soliqlarga bo'linishi hukumat idoralarining markaziy hukumat va mahalliy hukumatlarga bo'linishi asosida kelib chiqadi. Har bir hokimiyat idoralari o'zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o'z budjetiga va uni ta'minlaydigan soliqlarga ega bo'lishi kerak. Respublika hukumati umumdavlat miqyosida katta vazifalarni - mudofaa, xavfsizlikni saqlash, tartib intizom infrastrukturasini yaratish, turli ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish, fuqarolar ijtimoiy himoyasini tashkil etish va boshqa bir qator yirik vazifalarni bajaradi. SHuning uchun uning budjeti ham, soliqlari hajmi ham salmoqli bo'lishi shart. Qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, yuridik shaxslarning daromadi (foydasidan), fuqarolar daromadidan olingan soliqlar respublika budjetiga tushadi. Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika budjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy budjetlar daromadlilik darajasini tartibga solib turish maqsadida ajratmalar ajratilishi mumkin. Bordi-yu, ajratmalar evaziga ham mahalliy budjetlarning xarajatlari qoplanmasa, u holda subventsia yoki dotatsiya beriladi. Agar kelgusi yilda mahalliy budjetlarning o'z manbalari barqarorlashib, soliqlari hajmi ko'payib qolsa, respublika soliqlaridan ajratmalar berishning zaruriyati bo'lmaydi. Respublika va mahalliy soliqlar yagona mohiyatga ega bo'lib, budjetga to'lanishi lozim bo'lgan majburiy to'lovlardir.

Mahalliy soliqlar mahalliy hukumatlar bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to'liq biriktirib beriladi. Mahalliy hukumatlar

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter

asosan mehnatkashlarga yaqin bo'lganligidan ular ijtimoiy masalalarni - maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin odatda bu soliqlar va yig'imlar ular budjetlari xarajatlarining 30-40 foizini qoplaydi, xolos. Mahaliy budjetlar daromadlarini ko'paytirish eng dolzarb masalalardan biridir. Faqat o'z daromad manbaiga to'liq ega bo'lgan mahalliy hukumatgina o'z faoliyatlarini to'liq amalga oshirishi mumkin. Mahalliy soliqlarning muhim xususiyati shundaki, ular faqat shu hududning budjetiga tushadi. Ular hisobidan boshqa budjetlarga ajratmalar berilmaydi.

Davlatning soliq siyosati uning iqtisodiy - moliya siyosatining ajralmas tarkibiy qismidir va unga bog'liq holda olib boriladi, chunki soliq munosabatlari moliya munosabatlarining muhim tarkibiy qismidir.

Soliq siyosati har bir mamlakatning ichki siyosati hisoblanib, unga hech qaysi davlatning aralashuvi ruxsat etilmaydi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan soliq siyosati avvalambor soliq yukini kamaytirish, soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini yanada oshirish, soliq ma'murchiligini yanada soddalashtirishga qaratilgan bo'lib, pirovardida tadbirkorlik sub'ektlarining real daromadlarini oshirish, ularning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va rag'batlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

2-jadval

O'tgan yillar mobaynida soliq yukining kamayishi

Soliq turlari	1992-2009 yillarda soliqlarning yuqori ko'rsatkichlari.	2012 y.
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	45%	9%
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	13%-60%	8%-22%

Qo'shilgan qiymat solig'i	30%	20%
Yagona ijtimoiy to'lov	40%	25%
Kichik korxona va va mikrofirmalar uchun yagona soliq	15,2%	6% (sanoat sohasida - 5%)

O'tgan yillar davomida soliq to'lovchilar zimasiidagi soliq yukini kamaytirish, ularning moliyaviy barqaroligini ta'minlash va ishlab chiqarish jaryonlarining yanada kengaytirish maqsadida ular daromadlaridan undiriladigan asosiy soliqlar bo'yicha soliq stavkalari quyidagicha kamaytirildi:

-2011 yilda soliq yuki, 1991 yil bilan solishtirganda, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2 barobar kamayib, 41,2 foizdan 22 foizga tushdi.

-Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha 1992 yildagi 45 foizdan 2012 yilda 9 foizga yoki o'tgan yillar mobaynida 5 barobarga;

-Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 1992 yildagi 60,0 foizdan 2012 yilda 22,0 foizga yoki o'tgan yillar mobaynida 2,7 barobarga;

-Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig'i bo'yicha 1992 yildagi 5 foizdan 2012 yilda 3,5 foizga yoki o'tgan yillar mobaynida 1,4 barobarga;

-Mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lovi bo'yicha, 1998 yildagi 15,0 foizdan 2012 yilda 6,0 foizga yoki o'tgan yillar mobaynida 2,5 barobarga;

-Yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha 1992 yildagi 40,0 foizdan 2012 yilda 25,0 foizga yoki o'tgan yillar mobaynida 1,6 barobarga pasaytirilgan.(3-jadval)

Jadvaldan ko'rinadiki, mamlakatimizda soliq yuki dunyo bo'yicha hamda Evropa Ittifoqi davlatlari, Lotin Amerikasi davlatlaridagi o'rtacha darajadan 2,1 marta past ko'rsatkichga ega. SHuningdek, MDHga a'zo davlatlardagi o'rtacha soliq yukining ham nisbatan past ekanida yurtimizdagi soliq yuki darajasining

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter
ta'sirikatta. CHunki, Rossiyada bu ko'rsatkich 34,1 foizni, Belorussiyada 27,6
foizni, Ukrainada 25,3 foizni tashkil etadi.

3-jadval

**Dunyoning ayrim davlatlarida soliq yukining
o'rtacha darajasi (2012 yil)**

Davlatlar va uyushmalar nomi	Soliq yukining o'rtacha darajasi, foizda	O'zbekistondagi soliq yukining boshqa davlatlardagi holat bilan qiyosiy darajasi
AQSH	32,3	1,5 marta past
Evropa Ittifoqi davlatlari	42,6	2,0 marta past
Lotin Amerikasi davlatlari	47,2	2,2 marta past
Janubiy Osiyo davlatlari	40,2	1,9 marta past
SHarqiy Osiyo davlatlari	34,5	1,6 marta past
Markaziy Osiyo davlatlari	40,5	1,9 marta past
Rossiya Federasiyasi	34,1	1,6 marta past
MDHga a'zo davlatlar	25,2	1,2 marta past
Dunyo davlatlari bo'yicha o'rtacha	44,7	2,1 marta past
O'zbekiston	21,6	x

Davlat iqtisodiyotni tartibga solish va ichki milliy bozorni rivojlantirishda hamda himoyalashda asosan, egri soliqlarga tayanadi. Davlat bu soliqlar orqali mamlakat hududiga ayrim tovarlarni ko'proq olib kirish yoki olib chiqish va buning aksini ifodalovchi vazifalarni bajarishi mumkin.

Egri soliqlar ichida qo'shilgan qiymat solig'i eng yuqori o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 65-moddasida qo'shilgan qiymat solig'i tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish), ularni realizastiya qilish hamda O'zbekiston Respublikasiga tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni import qilish jarayonida qo'shilgan qiymatning bir qismini budjetga ajratishdir, deb ko'rsatilgan.

2-rasm

Qo'shilgan qiymat solig'ining davlat budjeti daromadlaridagi ulushi


Unknown Format

Maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz davlat budjeti daromadlarida qo'shilgan qiymat solii soliining ulushi 2008-yilda 28.1%ni tashkil qilgan bolsa 2012-yilda 33%ni tashkil qilmoqda. Bu esa budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarnig ahamiyati yuqori ekanligidan darak bermoqda.

Egri soliqlar orasida muhimligi bo'yicha Aksiz solii QQS dan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Akstiz Angliyada parlament tomonidan kiritilgan edi. Akstiz solig'i undirilgan dastlabki predmetlar safida tuz, issiq ichimliklar, go'sht, non, un bo'lgan. Ushbu soliq turi O'zbekiston Respublikasida 1997 yildan boshlab amalga kiritildi.

3-rasm

Aksiz solig`ining davlat budjeti daromadlaridagi ulushi



2008 yilda aksiz solig'i maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz davlat budjeti daromadlari tarkibida 16.5 foizni, 2009 yilda 14.4 foizni, 2010 yilda 16.7 foizni 2011 yilda 15.3 foizni, 2009 yilda esa 15 foizni tashkil etgan, ya'ni 2012 yilda 2011 yilga nisbatan kamayish yuz bergan.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotini rivojlanib borishida iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishda soliq tizimi juda muhim va ishonchli vositadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Soliq tizimining eng muxim vazifasi - ishlab chikarishni rivojlantirishga, moddiy-xom ashyo, tabiiy, moliyaviy va mexnat resurslaridan, to'plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga ragbatlantiruvchi ta'sir kursatishdir" deb ta'kidlagan edi.

To'g'ri real soliqlar o'rnini borgan sari shaxsiy soliqlar egallab bormoqda, ular xam jismoniy, xam yuridik shaxslarning xisobga olingan daromadlariga solinadi. To'g'ri shaxsiy soliqlar deklaratsiya bo'yicha

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter

undiriladi. Asosan ular uchun progressiv stavkalar xosdir. To'g'ri shaxsiy soliqlarga daromad solig'i, korxonalar foydasidan olinadigan soliq va xokazolar kiradi. To'g'ri soliqlar davlat byudjeti solikli daromadlarida egri soliqlardan keyingi ikkinchi o'rinda turadi.

To'g'ri soliqlarni to'g'ridan to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqni huquqiy to'lovchisi xam, haqiqiy to'lovchisi xam bitta shaxs bo'ladi. To'g'ri soliqlar daromad (foyda) soliqlari va resurslar soliqlaridan tashkil topadi. Soliq to'lovchining daromadi(ish xaki, foyda, foizlar va boshkalar) va mol-mulki qiymati to'g'ri soliqlar ob'ektidir.

To'g'ri soliqlar, o'z navbatida , real va shaxsiy soliqlarga bo'linishi mumkin. To'g'ri real soliqlar deganda shunday soliqlar tushuniladiki, ular mol-mulk yoki daromadlarning turli xillariga solinadi xamda ob'ektning xaqiqatda keltiradigan daromadini hisobga olmasdan, uni taxminiy baholash asosida undiriladi.

2.2. Davlat byudjeti daromadlarini shakllanishi jarayonida xorijiy mamlakatlar soliq stavkalari tahlili

Xorijiy mamlakatlarda soliq stavkalarining davlat byudjeti daromadlaridagi hissasi tahlilini ko'rib chiqamiz. Soliq stavkalarini rivojlangan davlatlardan biri AQSh misolida tahlil qilamiz. Shunisi xarakterliki, AQShda daromad solig'ini aniqlash muhim o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bu xususiyat alohida soliq to'lovchilar bo'yicha tabaqalashgan standart chegirmalar mavjudligi hisoblanadi. Mazkur chegirma boshqa rivojlangan ilg'or mamlakatlarning byudjet amaliyotida mavjud emas. Tabaqalangan standart chegirmani qo'llash tartibi quyidagicha:

- yolg'iz fuqarolar uchun – 4150 dollar;
- boqimandasi bo'lgan oila boshliqlari uchun – 6050 dollar;

– er – xotindan iborat oila uchun – 6150 dollar.

Keksa va ko'zi ojiz fuqarolar 800 dollardan 2000 dollargacha bo'lgan miqdorda qo'shimcha chegirmalar olish huquqiga egadirlar.

AQSh soliq amaliyotida aholining o'rtahol va badavlat qatlamlariga nisbatan daromad solig'ining alohida chegirmalari qo'llaniladi. Bu chegirmalar daromaddan mahalliy soliqlarni, ko'chmas va shaxsiy mulklarni, avtomashina yoki ko'chmas mulkni sotib olish maqsadida berilgan ssudalar bo'yicha foizlarni, ta'lim xarajatlarini, nafaqa badallarini, meditsina xarajatlarining ayrim turlarini va boshqa shu kabi xarajatlarni chegirib tashlashni ko'zda tutadi. Amalga oshirilgan hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, o'tgan asrning 90-yillar oxiriga kelib yiliga 15000 dollargacha daromad oladigan AQSh fuqarosi haqiqatda olingan daromadlarning 11 foizidan ortiq qismidan soliq to'laydilar. Yiliga 15000 dollardan 30000 dollargacha daromad oladigan fuqarolar olingan daromadlarning 50 foizidan ortiq qismidan, yiliga 30000 dollardan ortiq daromad oladigan fuqarolar olingan daromadlarning 75 foizdan ortiq qismidan soliq to'laydilar.

Biz quyidagi jadval ma'lumotlari orqali AQShda yolg'iz fuqarolar uchun daromad solig'i stavkalarining darajasini ko'rib chiqamiz.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, AQShda yolg'iz fuqarolardan olinadigan daromad solig'iga nisbatan progressiv stavkalar qo'llanilmoqda. Progressiv soliq stavkalari fuqarolarning daromadini o'sishiga bog'liq ravishda oshib boradi.

AQSh Federal byudjeti daromadining umumiy hajmida salmog'iga ko'ra ikkinchi o'rinni ijtimoiy sug'urtaga qilingan ajratmalar egallaydi. Ijtimoiy sug'urtaga qilingan ajratmalar ish beruvchilar va yollanma ishchilar o'rtasida teng taqsimlanadi. Badallarning stavkalari har yili byudjetni shakllantirish jarayonida tasdiqlanadi. XX asrning 90-yillarida umumiy stavka ish haqi

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter

fondining 15,02 foizini tashkil qilar edi. Bunda ish beruvchi va ishchi (xodim) 7,51 foizdan badal to'lar edilar. Shunisi ahamiyatli ediki, mazkur tartibda ish haqi fondining faqatgina dastlabki 48,6 ming AQSh dollari miqdoridagi qismi ijtimoiy sug'urta badaliga tortilar edi. 2000 yildan boshlab ijtimoiy sug'urta stavkalari 6,2 foiz qilib belgilandi, bunda soliqning maksimal stavkasi 76,2 ming AQSh dollari miqdoridagi qismiga belgilandi. Yangi ijtimoiy sug'urta ajratmalarining amaldagi tartibiga muvofiq, ish beruvchilar yuqorida qayd etilgan ajratmalardan tashqari ish haqi fondining dastlabki 7000 AQSh dollari miqdoridagi qismidan 6,2 foizli stavkada ishsizlik bo'yicha ham soliq to'laydilar.

4-jadval

AQShda yolg'iz fuqarolardan olinadigan daromad solig'ining stavkalari

Soliqqa tortiladigan yillik daromad summasi, AQSh dollari	Daromad solig'i, %
1) 22 000 gacha	15
2) 22 000 – 54 000	3300 □ 22 000 dan ortiq summaning 28 foizi
3) 54 000 – 115 000	12 000 □ 54 000 dan ortiq summaning 31 foizi
4) 115 000 – 250 000	31000 □ 115000 dan ortiq summaning 36 foizi
5) 250 000 dan ortiq	80000 □ 250000 dan ortiq summaning 40 foizi

AQSh Federal byudjeti daromadlarining umumiy hajmida salmog'iga ko'ra uchinchi o'rinni korporatsiyalarning daromadlaridan olinadigan soliq tushumlari egallaydi.

Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, korporatsiyalarning daromadidan olinadigan soliq kichik va o'rta biznes (KO'B) korxonalarini moliyaviy rag'batlantirish vazifasini o'taydi. Chunki, daromad hajmining o'sib

borishi bilan soliq stavkalari ham oshib boradi. Masalan, 50 000 dollargacha daromad oladigan korporatsiyalar eng past stavkada soliq to'laydilar. Soliq stavkalari 100 000 dan 335 000 AQSh dollarigacha bo'lgan daromad uchun muttasil oshib boradi. Bu esa kichik biznes korxonalari uchun o'ziga xos soliq imtiyozi vazifasini o'taydi. Yirik korporatsiyalar esa 18 333 333 dollardan ortiq daromadlaridan 35 foizli stavkada soliq to'laydilar. Bu esa juda yuqori stavka bo'lib, maksimal stavkadan atigi 4 bandga pastdir. Yirik korporatsiyalar esa, odatda daromadlilik darajasi 100 000 000 va undan yuqori bo'lgan xo'jalik sub'ektlari hisoblanadi.

5-jadval

AQShda korporatsiyalarning daromadidan olinadigan soliqlarning bazasi va stavkalari

Soliqqa tortiladigan daromad, dollar	Soliq stavkasi, %
50 000 gacha	15
50 000 – 75 000	25
75 000 – 100 000	34
100 000 – 335 000	39
335 000 – 10 000 000	34
10 000 000 – 15 000 000	35
15 000 000 – 18 333 333	38
18 333 333 dan yuqori	35

AQShda korporatsiyalar daromadidan olinadigan soliqni qo'llashga xos bo'lgan xususiyatlardan biri shundaki, bu erda dividendlar soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanmaydi. Ammo, dividendlarga nisbatan sezilarli darajada soliq imtiyozlari qo'llaniladi. Masalan, korporatsiyalar uchun soliq imtiyozlari ularning aksionerlik kapitalidagi salmog'idan kelib chiqqan holda belgilangan. Xususan, korporatsiyaning boshqa korporatsiya aksionerlik kapitalidagi salmog'i 80 foiz va undan ortiq bo'lsa u holda korporatsiya oladigan dividend 100 foiz soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanadi. Agar

bu ko'rsatkich 20 foiz va undan ortiq bo'lsa dividendlarning 80 foizi, qolgan barcha holatlarda dividendlarning 70 foizi soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanadi.

AQShda korporatsiyalarning daromadlaridan olinadigan soliq bazasini hisoblashda amortizatsiya ajratmalari, kredit bo'yicha foiz to'lovlari, fuqarolarga to'langan daromad soliqlari, mol-mulk solig'i, xayr-ehson maqsadlarga ajratilgan mablag'lar, sug'urta to'lovlari bilan ta'minlanmagan yo'qotish summaları va umidsiz qarzlar chegirib tashlanadi.

Shunisi xarakterliki, AQShda korporatsiyalarning yuqori foydasidan ham soliq olinadi. Mazkur soliq bo'yicha soliq bazasi amaldagi qonunchilikka ko'ra soliqqa tortishning imtiyozli shartlari belgilangan daromadlar majmuini o'z ichiga oladi. Bunda soliqqa tortilmaydigan daromad summasi 40 000 AQSh dollarini tashkil qiladi, daromad summasi 40 000 dollarga etishi bilan amaldagi stavka 20 foizga tushadi. O'zbekiston Respublikasida ham soliqqa tortishning imtiyozli sharoitlariga ega bo'lgan korxonalar mavjud, masalan, neft va gaz sanoatiga qarashli bir qator korxonalarni bunga misol qilish mumkin. Shuning uchun mazkur korxonalarga nisbatan yuqori foydadan olinadigan soliqlarni qo'llash masalasini ilmiy asosda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

AQSh Federal byudjeti daromadlarining umumiy hajmida egri soliqlarning salmog'i yuqori emas. AQSh qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) mavjud bo'lmagan kam sonli mamlakatlardan biri hisoblanadi. Bu erda qo'shilgan qiymat solig'ining o'rniga sotishdan olinadigan soliq qo'llaniladi. Uning stavkasi 4 foizdan 8,5 foizgachani tashkil etadi.

Aktsiz soliqlari spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlariga, transport xizmatlariga nisbatan o'rnatilgan bo'lib, ularning davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog'i sezilarsizdir.

Rivojlangan ilg'or mamlakatlarda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda o'ziga xos bo'lgan xususiyatlardan biri shundaki, ularning

deyarli barchasida aholidan olinadigan daromad solig'i soliq tushumlarining sezilarli qismini tashkil etadi. Masalan, Germaniyada davlat byudjetining daromad qismida aholidan olinadigan daromad solig'ining salmog'i 30 foizni, Buyuk Britaniyada 64 foizgachani, Frantsiyada esa 15 foizni tashkil qiladi. Aholidan olinadigan daromad solig'ining sezilarli darajada yuqori salmoqqa ega ekanligi, bizning fikrimizcha, mazkur mamlakatlar aholisining nominal daromadlari hajmining uzluksiz o'sib borayotganligi va soliq stavkalarini progressiv ekanligi bilan izohlanadi. Ayni vaqtda, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliqning davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i pasayish tendentsiyasiga ega bo'lmoqda. Chunonchi, ikkinchi jahon urushi arafasida mazkur soliq bo'yicha olingan tushum summasi AQSh Federal byudjetiga jami soliq tushumlarining 50 foizga yaqin qismini tashkil qilardi. 1955 yilga kelib bu ko'rsatkich 30 foizni, 1975 yilda 15 foizni, 1998 yilda esa 12 foizni tashkil qildi. Mazkur soliqning davlat byudjeti daromadlari hajmidagi ahamiyatini pasayib borishi, asosan, ushbu soliq turiga nisbatan soliq imtiyozlarini doimiy ravishda qo'llanilayotganligi va soliq stavkalarini pasaytirib borilayotganligining oqibatidir. Xususan, AQShda mana shu sabablarga ko'ra xo'jalik sub'ektlari yalpi daromadining 50 foizga yaqin qismi, Buyuk Britaniyada esa uchdan ikki qismi soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanadi.

Shunisi xarakterliki, rivojlangan mamlakatlarda soliq tushumlari summasini muttasil o'sib borayotganligiga qaramasdan davlat byudjeti defitsiti surunkali holatga aylanib qoldi. Bu esa, o'z navbatida, davlat byudjeti defitsitini qoplashning noinflyatsion manbai bo'lgan – hukumatning qimmatli qog'ozlarini emissiya qilish va sotish hajmini yuqori darajada o'sishiga olib keldi. Birgina AQShda hukumatning qimmatli qog'ozlarini sotish natijasida yuzaga kelgan davlat qarzi 5,5 trln. AQSh dollaridan oshib ketdi. Bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyada 300 mlrd. funt sterlingdan ortiq summani tashkil qilsa, Germaniya

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter
va Frantsiyada mos ravishda 796 mlrd. markani va 3898 mlrd. frankni tashkil qiladi.

Hozirgi vaqtda Sharqiy Evropa mamlakatlarining davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1) Davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmida egri soliqlar yuqori salmoqni egallaydi. Bu yuqori salmoq, qo'shilgan qiymat solig'i va aktsizlar hisobiga ta'minlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'idan olinadigan tushumlarning davlat byudjeti daromadlari hajmidagi salmog'i Bolgariyada 55,5 foizni, Vengriyada – 44,7 foiz, Polshada 60,2 foiz, Chexiyada – 35,7 foizni tashkil qiladi.

Mazkur mamlakatlarning soliq amaliyotini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, birinchidan, ularda qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz soliqlarining stavkalari yuqori; ikkinchidan, egri soliqlarga nisbatan qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining turi juda kam. Masalan, Vengriyada qo'shilgan qiymat solig'ining stavkasi 25 foiz bo'lib, imtiyozli soliq stavkasi 12 foizni tashkil etadi. Polshada bu ko'rsatkichlar mos ravishda 22 foiz va 7 foiz, Chexiyada 22 foiz va 5 foiz.

2) Sharqiy Evropa mamlakatlari davlat byudjetlarining daromad qismida aholidan olinadigan daromad solig'ining salmog'ini o'sish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Bu esa, asosan, daromad solig'i stavkalarining yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Masalan, Bolgariya va Vengriyada aholidan olinadigan daromad solig'i stavkasi 20 foizni, Chexiyada 15 foizni tashkil etadi.

3) Davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmida yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq tushumlarining salmog'i pasayish tendentsiyasiga ega bo'layapdi. Bu holatning asosiy sababi, soliq stavkalarini doimiy ravishda tushirib borilayotganligidir. Masalan, Polshada 1998 yilda yuridik shaxslarning

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter

foydasidan olinadigan soliqning stavkasi 36 foiz bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda bu ko'rsatkich 22 foizni tashkil qiladi. Vengriyada mazkur soliqning stavkasi 18 foizni, Bolgariyada esa 15 foizni tashkil etadi.

Sharqiy Evropa mamlakatlarida davlat byudjeti xarajatlarini doimiy ravishda oshirib borish zaruriyati byudjet daromadlarining etishmovchiligini yuzaga keltiradi. Mazkur holat o'tish davridagi iqtisodiy qiyinchiliklar, iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurishning zarurligi kabi omillar bilan izohlanadi.

Sharqiy Evropa davlatlarida, yuqorida qayd etilgan sabablar tufayli, davlat byudjeti defitsiti muammosini yuzaga kelishi hukumatning qimmatli qog'ozlarini emissiya qilish va sotish yo'li bilan davlat byudjeti daromadlarini ko'paytirish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Xususan, 1996 yildan boshlab Chexiya davlat byudjetining defitsiti yuzaga keldi va u 1999 yildan boshlab byudjet xarajatlarini 5 foizdan ortiq qismini tashkil eta boshladi. Buning natijasida, Chexiya hukumati o'zining qimmatli qog'ozlarini sotish hajmini oshirish yo'li bilan davlat byudjeti daromadlarini ko'paytirishga majbur bo'ldi. 2000 yilga kelib, mazkur daromad manbai byudjet daromadlarining 34,4 foizini tashkil qildi. Vengriyada ham davlat qarzi muammosining chuqurlashuvini kuzatish mumkin. Xususan, 1995 yilda davlat qarzini to'lash bilan bog'liq xarajatlar byudjet jami daromadlarining 29,1 foizini olib ketdi, 1998 yilda bu ko'rsatkich 26,2 foizni, 2000 yilda esa 21,2 foizni tashkil qildi.

Jahonning ko'pgina mamlakatlari iqtisodiyotini kuzatish shuni aniqlab beradiki, soliqlarning tarkibida to'g'ri soliqlar ulushining kamayib ketishi iqtisodi yaxshi rivojlanmagan davlatlarga xos xususiyat hisoblanadi. Quyida keltirilgan 1.3.3-jadvalda biz buning tasdig'ini ko'rishimiz mumkin.

6-jadval

Jahonning turli darajada rivojlangan mamlakatlaridagi bevosita va

bilvosita soliqlarining o'zaro nisbati (foiz hisobida)

	Bevosita soliqlar	Bilvosita soliqlar
Qoloq mamlakatlar	32	68
O'rta darajada rivojlanayotgan mamlakatlar	50	50
Rivojlangan mamlakatlar	68	32

Rivojlangan mamlakatlarning ayrimlarini kuzatadigan bo'lsak, umumiy daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlarning ulushi juda yuqori. Masalan, 1997 yilgi ma'lumotlarga ko'ra to'g'ri soliqlarning ulushi AQShda 91, Yaponiyada 63,8, Buyuk Britaniyada esa 54,3 foizni tashkil qilgan.

Endi biz tahlil ob'ektini Rossiya Federatsiyasi davlat byudjetiga ko'chiramiz.

Rossiya Federal byudjetining umumiy hajmida salmog'iga ko'ra birinchi o'rinni egri soliqlar egallaydi. Ularning byudjet umumiy daromadlari hajmidagi salmog'i 68 foizdan oshadi. Egri soliqlar ichida salmog'iga ko'ra birinchi o'rinni qo'shilgan qiymat solig'i egallaydi. Uning Federal byudjetning daromadlari hajmidagi salmog'i 30 foizdan ortiq qismni tashkil etadi. Undan keyingi o'rinni aksiz va boj soliqlari egallaydi. Ularning federal byudjetning daromadlari hajmidagi salmog'i mos ravishda 18,4 va 19,3 foizni egallaydi.

Egri soliqlarning asosiylaridan hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i 42 ta davlat soliq tizimining hal qiluvchi soliqlaridan hisoblanadi. Shundan 17 tasi Yevropa mamlakatlari hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalariga to'xtalsak, ko'pchilik mamlakatlarda ushbu soliqning stavkasi tabaqalashtirilgan bo'lib, respublikamizga nisbatan katta tafovutlar ko'zga tashlanmaydi. Masalan,

Buyuk Britaniyada uchta stavka - 0; 8; 17,5 foiz,

Italiyada beshta stavka - imtiyozli 2 foiz va asosiy - 9 foizli stavkalar amal qiladi.

Germaniyada esa ikkita stavka, imtiyozli - 7 foiz va standart -15 foiz,

Fransiyada 2,1; 4; 5,5; 18,6 va 22 foizli stavkalar amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasida esa 2013 yilda QQS Satvkasi o'zgarmadi yani 20 foizga teng qilib belgilandi.

III BOB. DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI OSHIRISHDA JAHON AMALIYOTI VA ULARNI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QO'LLASH MASALALARI

3.1. Davlat budjeti daromadlarini oshirishdagi muammolar va ularni hal qilish imkoniyatlari

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlarning negizida uning jaxon xamjamiyatiga qo'shilishini, iqtisodiyotni investitsion jalb etuvchanligini oshirishni, uning eksport saloxiyatini va import o'rnini bosa oladigin milliy ishlab chiqarishni oshirishni, inovatsion faollikni rag'batlantirishni ta'minlash. Ushbu jixatlar mamlakatda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishning , chet el investitsiyalaridan samarali foydalanishning rag'batlari tizimini va ayniqsa, soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirish tizimini takomillashtirishni talab etadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat budjeti daromadlarini oshirishda qator kamchiliklarni ko'rishimiz mumkin, ulardan asosiysi soliq tizimida uchraydi.

Respublikaning soliqqa tortish tizimida hali imtiyozlar, stavkalar, soliqqa tortish ob'ektlarida barqarorlik yo'q, asosiy kapitalni shakillantirishda QQS xisoblash muammolari mavjud. Bu tizimda investitsion soliq kreditining turli shakillaridan foydalanish mexanizmlari yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Respublikada amalda bo'lgan amortizatsiyani xisoblash mexanizmi texnika bilan qayta jixozlash xarajatlarini rag'batlantirmaydi. Jadallashgan amortizatsiyaga yo'l bermaydi, ishlab chiqarishga investitsiyalarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan tadbirlar doirasini toraytiradi.

Umuman, soliqlarni tartibga solish funktsiyasidan foydalangan xolda milliy iqtisodiyotning o'zidagi cheklangan resurslarni investitsiyalashda davlat

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter
va xususiy manfaatlar nisbatini ma'qullashtirish maqsadga muvofiqdir.
Investitsiyalar bo'yicha soliq kreditlari vositasida iqtisodiyotning real sektorida
nodavlat tuzilmalarning investitsiya faoliyatini kuchaytirish va kengaytirish
zarurdir.

Respublikada amalda bo'lgan soliq rag'batlarini 4 turga bo'lish mumkin:

- soliq to'lashdan vaqtinchalik ozod qilish;
- soliq stavkasini pasaytirish;
- soliqqa tortiladigan ba'zani kamaytirish;
- soliq majburiyatini bajarishni kechiktirish(soliq krediti)

Qayd qilingan rag'batlar u yoki bu darajada chet el investitsiyalari
ishtirokidagi keng doiradagi korxonalar uchun tadbiriq etiladi.

Lekin xozir amalda bo'lgan soliq imtiyozlari turlari halqaro soliq
proteksionizmi (xomiyligi) tajribalarini etarli darajada xisobga olmaydi.
Masalan, fang'texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriyo qilish soxasidagi
investitsiya faoliyati soliq kreditlari vositasida rag'batlantirilmaydi. Shu
munosabat bilan ishlab chiqarish investitsiyalarini kengaytirishga, iste'mol
investitsiyalarini kamaytirishga, xususiy sektor investitsiyalarni jalb qilishga
yo'naltirilgan imtiyozlar va preferentsiyalar doirasini kengaytirishga to'g'ri
keladi. Umuman olganda soliq imtiyozlari va stimullari kapital jamg'arilishini
rag'batlangirishi va iqtisodiy sub'ektlar manfaatlarini xisobga olishi lozimyu
stavkalar miqdorini pasaytirish, soliq imtiyozlari va kreditlari to'lovlarini
meyorlashtirish, QQS ni ko'p marotaba undirishni bartaraf etish kerak.

Soliqqa tortiladigan foydani kamaytirishning real mexanizmi "ikki
tomonlama kamayib boruvchi qoldiq" ko'rinishidagi jadallashgan
amortizatsiyani joriy qilish va xar bir aniq xolatda xorijiy investorlarga
qo'shimcha manfaatlar va ximoya chora tadbirlarini ta'minlashdan iborat.
Mamlakat qonunchiligidagi jadallashgan amortizatsiyani qo'llashga xar qanday
monelikni bartaraf qilish lozim.

O'zbekistonda investitsiya faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini, birinchi navbatda, barcha xo'jalik bosqichlarida jamg'armalar o'sishi sur'atlarini rag'batlantirish va iste'mol darajasini pasaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Bunga bizning nazarimizda, iqtisodiyotdagi yuridik va jismoniy shaxslardan, chet ellik investorlardan undiriladigan soliqlarni tartibga soluvchilik funktsiyasining amal qilishini kuchaytirish orqali erishish mumkin.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'ri soliqlar tarkibida yuqori salmog'ni egallaydi. Mazkur soliq turi bo'yicha soliqqa tortilmaydigan minimumni belgilash, daromadlarning ma'lum bir qismiga nisbatan past soliq stavkalarini qo'llash, axolining ayrim toifalarini soliqdan ozod qilish kabi imtiyozlar qo'llaniladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'idan faoliyatning ayrim muddatlariga tegishli bo'lgan imtiyozlar berishdan voz kechish kerak. Chunki ma'lum doiradagi soliq to'lovchilar soliq bo'yicha imtiyozga ega bo'lib, imtiyozga ega bo'lishning shartli muddati tugashi bilan tarqalib, boshqa nomda ro'yxatga olish reestrda qayta faoliyat yurita boshlash xolatlari ayniqsa, umumiy tartibda soliq to'lovchi kichik korxonalar faoliyatida uchrab turibdi. Buning oldini olish uchun asosan 2 yo'lni tanlash taklif etiladi:

- ushbu shakildagi imtiyozlar berishdan ancha pasaytirilgan stavkalarni qo'llash orqali korxonalarni xushyorlikka da'vat etib turish;
- shartli muddatni oshirish, soliqqa tortishdan ozod qilingan daromadlarga teng miqdorlarda maqsadli qo'yilmalar qo'yishga tegishli shartlar ishlab chiqish;

Respublikamiz soliq amaliyotida mol-mulk solig'i bo'yicha belgilangan amaldagi imtiyozlarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur imtiyozlarga xos bo'lgan asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

- soliq imtiyozlarini belgilashda yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan asosiy vositalarning ishlab chiqarish jarayonidagi ishtiroki xisobga olinmagan, bu esa ularni ishlab chiqarish fondlarini ishlab chiqarish jarayonidagi ishtirokini kuchaytirishdan manfaatdorligini oshirishni rag'batlantirmaydi.
- Amaldagi tartibda jadallashtirilgan amortizatsiyani qo'llashga ruxsat berish korxonalarni yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilishni rag'batlantiradi, ularning mol-mulk solig'ining bazasini kamaytiradi.

Bu muammolarni quyidagi asosiy guruxlarga ajratish mumkin:

- soliq yukini qonunlar doirasida pasaytirish xarakatlari yoki soliq menejmenti xarakatlari korxonada amalda kam rivojlangan;
- iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish maqsadida qonunchilikda foyda solig'ining asosiy stavkassi yildan yilga pasaytirib borilayotgan bo'lsada, soliqlarning umumiy si juda sezilarsiz darajada pasaymoqda;
- amalda bo'lgan soliqlardan imtiyozlar, asosan, iqtisodiy faoliyat turlarini yoki ustuvor tarmoqlarni rivojlantirishda etarli ta'sirga ega bo'layotgani yo'q;
- tadqiq natijalarini tasdiqlashicha, korxonalarning budjetga to'layotgan soliqlari tarkibi egri soliqlarning salmog'i oshib borish tendentsiyalarini ko'rsatmoqda. Bu esa korxonalarning birinchidan samaradorlik darajasi pastligi va eng asosiysi, soliq tushumlarining soxta ba'za yaratish xisobiga shakillantirilmoqda.

Umuman xulosa qilib aytganda, xozirgi soliq tizimida fiskal mexanizmga xos elementlar ko'proq rivojlantirilgan. Aytib o'tilgan kamchiliklar va muammoli vaziyatlarni bartaraf etilishi mamlakatimiz iqtisodiyoti ustuvor

tarmoqlari xisoblangan qishloq xo'jaligi, o'rta va yirik tadbirkorlik sohalarini rivojlantirishga, eksportni kengaytirish va import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarish uchun, inovatsion faollik uchun etarli sharoitlar yaratilgan bo'lar edi. Bu borada soliqlarning iqtisodiyotni tartibga soluvchilik funktsiyasini va mexanizmini mukammalltirish, bizning fikrimizcha, unumli va ta'sirchan vosita xisoblanadi, chunki soliqlar nafaqat davlat xazinasini to'ldirishning o'ziga xos mexanizmi, balki axoli daromadlarini tegishlichaikning tsiklik o'zgarishlarini keltirib chiqaruvchi inflyatsiya, ishsizlik kabi umumiqtisodiy muammolarni oldini olishning xam dastagidir.

Bugungi rivojlanish davrida mamlakat iqtisodiyotini ko'tarish muhim xayotiy omillardan biri xisoblanadi. Bunda eng asosiy o'rinni axolini farovonligi egallaydi. Chunki davlatning asosiy boyligi bu halqdir, halq farovonligi esa davlatning boyishiga olib keladiyu ushbu yo'nalishda respublikamizda bugungi kunda ko'pgina samarali ishlar olib borilmoqda. Ulardan eng asosiylaridan biri yuqorida ta'kidlanganidek soliq yuki bo'lsa, yana biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish xisoblanadi, shu bilan birga axoli bandligini ta'minlash xam muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimizning kichik biznesni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash hamda yangi ish o'rinlarini yaratishni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi bo'yicha quyidagi choralar ko'rildi:

- 2012 yilda kichik sanoat korxonalari uchun yagona soliq to'lovi 6 foizdan 5 foizga pasaytirildi, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun esa qayd etilgan soliq miqdori o'rtacha 2,5 barobar kamaytirildi;
- Mamlakatimizda kichik biznes sub'ektlari uchun yaratilayotgan yengilliklar tufayli oxirgi o'n yillikda ular soni 262,2 mingtaga oshib, bugungi kunda 456,6 mingtani tashkil etmoqda. Mamlakat yalpi ichki mahsulotida ularning ulushi

31 foizdan 54,0 foizga etdi. Bu birinchi navbatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlanayotgani samarasidir.

Axoli bandligini oshishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi o'z – o'zidan mamlakatga to'lanadigan daromadlarni oshishiga olib keladi.

Yuqorida ta'kidlangan ishlarni amalga oshirish, huquqiy taraflama qo'llab quvvatlash maqsadida turli qaror va farmoyishlar chiqarila boshlandi. Ushbu qonunlarda tadbirkorlikni rivojlantirish, axoli farovonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

«Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunining 11-moddasiga ko'ra tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek banklar bilan o'zaro munosabatlarida tadbirkorlik faoliyati sub'ekti huquqlarining ustuvorligi printsipli amal qilib, unga muvofiq qonun hujjatlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining foydasiga talqin etilishi belgilab qo'yildi.

Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirishlarni cheklash bo'yicha 39-moddada Nazorat qiluvchi organ rejali tekshiruv o'tkazishning boshlanishi haqida tekshiruvni o'tkazish boshlanishidan kamida o'ttiz kalendar kun oldin tadbirkorlik sub'ektini tekshiruvdan o'tkazish muddatlari va predmetini ko'rsatgan holda, yozma shaklda xabardor qilishi shartligi;

Tadbirkorlik sub'ekti belgilangan tartibda taqdim etgan moliya va soliq hisobotini, shuningdek tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyati to'g'risida davlat soliq xizmati organida mavjud bo'lgan boshqa hujjatlarni o'rganish hamda tahlil etish asosida o'tkaziladigan kameral nazorat natijalari bo'yicha qoidabuzarliklar aniqlangan hollardagina davlat soliq xizmati organlari tadbirkorlik

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter

sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish tashabbusi bilan chiqishi mumkinligi kabi bir qator normalar beligalandi.

O'zbekiston Respublikasining «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi O'RQ-327-sonli Qonunida quyidagilar ta'kidlab o'tilgan:

– Mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish va ro'yxatdan o'tkazish tartiblarini, oilaviy korxona mol-mulkini shakllatirish, undan foydalanish shuningdek, uni tasarruf etish koidalarini, oilaviy korxonaning hamda uning ishtirokchilarining xuquq va majburiyatlarini, oilaviy tadbirkorlikning kafolatlari belgilab berildi.

-Oilaviy tadbirkorlik tadbirkorlik sub'ektlarining alohidagi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida oilaviy korxona shakli joriy etildi va uning ishtirokchilari oilaviy korxona har bir ishtirokchisining mol-mulki va shu mulk negizida ishlab chiqarilgan tovarlarni (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) realizatsiya qilish xamda daromadni taksimlash tartiblari belgilab qo'yildi.

- Oilaviy korxona ishtirokchilari tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langandan keyin ularning tasarrufiga kelib tushgan foydaga soliq solishdan ozod etilishi belgilandi.

- Kommunal infratuzilma xizmatlari (elektr energiyasi, suv ta'minoti, kanalizatsiya, gaz ta'minoti va issiqlik ta'minoti) tarmoqlariga oilaviy korxona faoliyati amalga oshirilayotgan joygacha etkazilishini va ulanishini hamda oilaviy korxona turar joydan bir vaqtning o'zida unda istiqomat qilgan holda tovarlar ishlab chiqarish uchun foydalangan taqdirda haqini to'lash aholi uchun belgilangan tariflar bo'yicha va shartlar asosida amalga oshirilishi belgilandi.

- Oilaviy korxonalar tomonidan ishlab chiqarish faoliyati uchun foydalaniladigan turar joylarni noturar joylarga o'tkazish talablarini mavjud emasligi, Oilaviy korxona ishtirokchilari tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langandan keyin ularning tasarrufiga kelib tushgan

This document was created by Unregistered Version of Word to PDF Converter
foydaga soliq solishdan ozod etilishi belgilandi.

Yuqorida keltirilgan turli yo'nalishlar bugungi kunda eng avvalo mamlakatimiz axolisini qo'llab quvvatlash maqsadida amalga oshirilmoqda. Bu esa ma'lum darajada o'z samarasini ko'rsatmoqda. Ya'ni YAIMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, axoli daromadlari yildan yilga ulushi ko'payib bormoqda. Navbatda keltirilgan jadvallarda ko'rsatkichlar keltirib o'tilgan.

3.2. Davlat byudjeti daromadlarini oshirishda jahon amaliyotidan foydalanish masalalari

Rivojlangan davlatlarda soliq tizimining takomillashganligi asosan davlatning ishlab chiqarish munosabatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini nazorat qilinishi va ularning mexanizmini samarali amal qilishi bilan izohlanadi. Soliq tizimining to'g'ri shakllanishi mo'ljallangan soliq daromadlari va haqiqatda undirib olinganligi o'rtasida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklarga bog'liqdir. Rivojlangan mamlakatlarda davlat harajatlarini kamaytirishga, soliq yukini pasaytirishga e'tibor berilib, soliq munosabatlarda bir tomondan soliqlarning samarali amal qilinishi talab etiladi va ikkinchi tomondan soliq daromadlariga ehtiyojlarni kamaytirish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Bu borada mamlakatimizda ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Soliq solish tizimini takomillashtirish jarayonida EI mamlakatlarida soliqlar bir muncha kamaytirilishi kuzatiladi. hozirgi vaqtda shu davlatlarning ko'pchiligida korporatsiyalar daromadiga solinadigan soliqlar AQShdagiga nisbatan kam. Ayni bir vaqtda turli mamlakatlarning soliq belgilashga xilma-xil yondoshuvi sababli soliqni o'rtacha yoki bazali stavkalar asosidagina qiyoslash unchalik samara bermaydi. Bir tomondan, kator Yevropa mamlakatlari kichik firmalar va ba'zi korporatsiyalar uchun mablag' sarflashdagi soliqlarni ancha kamaytirsalar, ikkinchi tomondan, ba'zi davlatlar qo'shimcha soliqlar belgilaydilar. Masalan, Buyuk Britaniyaning soliq gavanlarvdagi va bo'sh

zonalaridagi daromadlaridan stavka bo'yicha 20% soliq olinadi; Irlandiyadagi Dublin zonasida joylashgan sanoat kompaniyalari daromadidan olinadigan soliq bor-yo'g'i 10%ni tashkil etsa, ayni bir paytda Italiyada mahalliy hokimiyat korporatsiyalar daromadidan olinadigan soliqlarni 36%dan 46%ga ko'paytiradilar. Buning barchasi hamdo'stlik mamlakatlarida soliq tavsiyalari o'zgartirilishini talab qiladi. Ushbu o'zgarishlarga binoan ruxsat etilgan soliq intervali doirasi (30—40%) atrofida bo'lib, mahalliy soliqlar ham e'tiborga olinishi kerak. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi davlatlarning ichki va tashki siyosatini muvofiklashtirish maqsadida soliq tizimlarini, budjet jarayonlarini, davlat xarajatlarini, nazorat tizimini muvofiklashtirish zarur. Bunday kelishuv ayniqsa, soliqlar sohasi bo'yicha juda zarur. Aynan shu yo'lni Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bosib utmoqdalar.

Jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi soliq islohotlari tajribasi shundan dalolat beradiki, yangi soliqlar solish bo'yicha qarorlar qabo'l qilishda umummilliy qonunlarga tayanilganda eng ko'p samaraga erishilishidan darak beradi, biroq hokimiyat mahalliy organlari qarorlari bo'yicha ish ko'rilganda bunchalik samara bo'lmaydi, bu esa keyingi vaqtda respublika uchun xos xususiyat bo'lib qoladi. Boshqa bir tomondan, mahalliy budjetlar markaziy budjet tarkibida hisobga olinmaganda markaziy hokimiyat va hokimiyatning mahalliy organlari faoliyatlari doirasining, ularni o'z-o'zini mahalliy ta'minlashini cheklash siyosati katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa, fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasining qonunlarida ham o'z aksini topishi mumkin bo'lgan holdir.

Soliq islohotini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mantiqiy jihatdan to'g'ri harakat qilmoq lozim. Buning uchun, eng avvalo, budjet xarajatlari oqilona ekanligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish kerak. Chunki hozirgi paytda soliqlarni keskin qisqartirmasdan turib, soliq to'lovchilarning ahvolini keskin yaxshilashning iloji yo'k. Umumiy tarzda hozirgi paytda xoxshilik

yurituvchi subyektlar o'zlari tomonidan yaratilgan yalpi mahsulotning qariyb yarmini budjet ixtiyoriga o'tka-zishmoqda. Budjet xarajatlarini oqilonalashtirish va qisqartirish natijasida soliq stavkalarini birmuncha pasaytarish va buning oqibatida esa yalpi ijtimoiy mahsulotdagi soliqlarning salmog'ini 22-23 foizga tushirish mumkin. shuning uchun xam bunday sharoitda noreal budjet xarajatlarini qisqartirish va buning uddasidan chiqish aloxida ahamiyat kasb etadi.

Soliq islohotini amalga oshirish rejalashtirilayotgan paytda quyidagilarga aloxida e'tibor bermoq lozim:

- qonunchilik va me'yoriy aktlar butun massivini yagona xujjatga integratsiyalashtirish;
- yagona tushunchalar apparatining qo'llanilishi, soliq qonunchiligi koidalarini bir xil tartibda tushunish;
- mamlakatdagi soliqdarning umumiy sonini keskin qiskatirish, soliq qonunchiligida ko'rsatilmagan soliqlar va yig'imlarni joriy etilishini taqiqlab qo'yish;
- ishlab chikarilgan mahsulot hajmi asos bo'lib hisoblanuvchi barcha soliq va yig'imlarni bekor qilish;
- mehnat xaqiga yo'naltarilayotgan mablag'larni soliqqa tortishni isloh qilish;
- foydadan olinadigan soliqning bazasini xisoblashda butun dunyoda qabul qilingan andozadan foydalanish, «tannarx» tushunchasidan amalda yuz kechish, yangi amortizatsiya siyosatini yurgazish;
- ko'psonli imtiyozlardan voz kechish.

Bir necha soliq kununlarini modifikatsiyalash asosida yagona soliq qonunining kabul kilinishi amalda samaralidir. CHunki hozirgi vaqgda xatto mutaxassislar ham yo'riknomalardagi joriy o'zgarishlarni kuzatishga, alohida olingan qonunlarning o'zaro ko'p sonli nomutanosibliklarini taxdil qilib

Soliq qonunchiligida yagona atamalar, turli hujjatlarda qo'llanilgan tushunchalarni bir xil tarzda talqin etish zarurki, bular oqibat natijada, mamlakatimiz va xorijiy kompaniyalarni soliqqa tortishda bir xil tarzda yondashishga, soliq qonunidagi kamchiliklarni barham topishiga, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlamaslikka olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri uning tashkishy tuzilishini takomillashtirishdir. Bozor munosabatlarining rivojlanishi sharoitida respublikamiz soliq tizimining shakllanish bosqichida soliqlarning turlari bo'yicha ixtisoslashgan holda, dastlab, soliq organlarining markazlashtirilgan ierarxik tizimi shakllandi. Soliq tizimini shakllantirishning dastlabki bosqichida soliqlarni hisoblash va undirish metodologiyasi hamda soliq hujjatlarining shakllari ma'lumotlarni an'anaviy ravishda ko'lda ishlashga to'liq mo'ljallangan edi. Ma'lum darajada soliq metodologiyasi rivojlanishining ana shunday tendentsiyasi hozirgi vaqtda xam saqlanib qo'layaptiki, bu narsa ma'lumotlarni elektron tarzda qayta ishlashni tashkil qilishdaga muhim muammolardan biridir. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining rivojlanish va takomillashish jarayoni davom etayotgan bo'lishiga qaramasdan uning dastlabki tashkiliy tuzilmasi va soliq organlari ishining tarkib topgan tizimi o'zlarining juda ko'p o'lchamlariga ko'ra tegishli ishning samaradorligini oshirish salohiyatini tugatgan.

Ba'zi davlatlarda mavjud bo'lgan va uni O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida qo'llash mumkin bo'lgan holatlar:

- Germaniyada korporatsiyalar daromadiga soliq solishda soliqqa tortilmaydigan minimumlar mavjud. Korporatsiyalarni daromadini soliqqa tortishda daromadlar ikkiga bo'linadi, ya'ni taqsimlanadigan va taqsimlanmaydigan daromadlarga.
- Germaniyada mol-mulk solig'i o'rniga jismoniy shaxslarga meros va

sovg'aga soliq joriy qilingan. Bunda merosga qoldirilgan (sovg'a qilingan) mol-mulk qarindoshlik darajasiga qarab, 3%dan 70% stavkagada soliqqa tortiladi. O'zbekistonda meros va sovg'aga soliq bir martalik yig'im sifatida joriy qilingan.

- Germaniyada yer solig'ini undirishda, erdan foydalanish maqsadi inobatga olinadi. O'zbekistonda esa er solig'i yuridik shaxslarga alohida va jismoniy shaxslarga alohida qo'llaniladi. Soliq stavkasini Vazirlar Mahkamasi har yili qayta belgilaydi.
- Germaniyada QQS solig'ini pasaytirilgan stavkalari mavjud. O'zbekistonda QQS 20% va 0% stavkalari qo'llaniladi.
- AQShning bir qancha shtatlarda, masalan, Koliforniya, ishbilarmonlik faolligini soliqqa tortish joriy etilgan. U ikki elementni: korxonaning umumiy yillik aylanmasini soliqqa tortish (asosan 1dan 2.5 % gacha) va ish xaqi fondidan soliq undirishni – 1.6 % o'z ichiga oladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat budjeti daromadlarini oshirish, budget balansini bir me'yorda ushlab turish, xarajatlarni aniq maqsadli yo'naltirish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muxim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, bugungi rivojlanish jarayonida, xorijiy ayni yuqorida keltirib o'tilgan ishlarniamalga oshirish ishlari ketayotganini ko'rishimiz mumkin.

Soliq yukining pasaytirilishi natijasida budgetga borib tushmaydigan mablag'larni budget mablag'lari nuqtai nazaridan kompensatsiya qilish (qayta tiklash, o'rnini to'ldirish,qoplash) masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi paytda iqtisodchilar tomonidan bunday kompensatsiya qilishning bir necha variantlari ko'rsatilmoqda.

Ularning asosiylari quyidagilar:

1. Soliq yukining pasaytirilishi avtomatik ravishda ishlab chiqarishning jonlanishiga, rivojlanishiga yoki kengayishiga olib keladi, natijada soliq to'lovchilarning soni ortadi, soliqqa tortish ob'ekti (bazasi)ning kengayishi, ko'payishini ta'minlaydi
2. . Soliq yukining pasaytirilishi natijasida budget yo'qotgan mablag'larni qarz olish yo'li bilan kompensatsiya qilishi mumkin;
3. . Soliq yukining pasaytirilishi natijasida budget yo'qotmalarini kompensatsiya qilishning o'ziga xos varianti, ma'lum manoda, budget xarajatlarini budget yo'qotmalariga mos ravishda qisqartirishdir;
4. . Soliq yukining pasaytirilishi natijasida budget yo'qotmalarini kompensatsiya qilishning yana bir varianti yuqoridagi

variantlarning turli ko'rinishidagi kombinatsiyalaridan iborat bo'lib, unda bir vaqtning o'zida aralash foydalanish mumkin

Ba'zi davlatlar tajribasidan foydalanib iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida qo'llashga tavsiya etiladigan holatlar:

- Germaniyada korporatsiyalar daromadiga soliq solishda soliqqa tortilmaydigan minimumlar mavjud. Korporatsiyalarni daromadini soliqqa tortishda daromadlar ikkiga bo'linadi, ya'ni taqsimlanadigan va taqsimlanmaydigan daromadlarga.
- Germaniyada mol-mulk solig'i o'rniga jismoniy shaxslarga meros va sovg'aga soliq joriy qilingan. Bunda merosga qoldirilgan (sovg'a qilingan) mol-mulk qarindoshlik darajasiga qarab, 3%dan 70% stavkagada soliqqa tortiladi. O'zbekistonda meros va sovg'aga soliq bir martalik yig'im sifatida joriy qilingan.
- Germaniyada yer solig'ini undirishda, erdan foydalanish maqsadi inobatga olinadi. O'zbekistonda esa er solig'i yuridik shaxslarga alohida va jismoniy shaxslarga alohida qo'llaniladi. Soliq stavkasini Vazirlar Mahkamasi har yili qayta belgilaydi.
- Germaniyada QQS solig'ini pasaytirilgan stavkalari mavjud. O'zbekistonda QQS 20% va 0% stavkalari qo'llaniladi.
- AQShning bir qancha shtatlarda, masalan, Koliforniya, ishbilarmonlik faolligini soliqqa tortish joriy etilgan. U ikki elementni: korxonaning umumiy yillik aylanmasini soliqqa tortish (asosan 1dan 2.5 % gacha) va ish xaqi fondidan soliq undirishni – 1.6 % o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Adolat, 2010.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. – T.: O'zbekiston, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida»gi Qonuni. Xalq so'zi. 2000. 14 yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasining «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi Qonuni. Xalq so'zi. 2004. 29 oktyabr.
5. Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. - T.: O'zbekiston, 1994. 20-bet.
6. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar 21-son.
7. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. – T.: O'zbekiston, 2005
8. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.:O'zbekiston, 2011.-48-b.
9. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1998. 463-b.
- 10.Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998.101-b.
- 11.Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. – T.: O'zbekiston, 1997. 179- b.
- 12.Абрамова А. М., Александрова Л.С. Финансы, денежное

обращение и кредит: Учебное пособие. - М.: 1999.- 335с.

13.Акпаров И.Г.. Казначейское система исполнение бюджета в Российской Федерации. – М.: Финансы и статистика, 2002.

14.Ананенко С.А. Повышение эффективности бюджетных расходов с помощью аналитических возможностей БОР //Финансы - № 11 - 2006.

15. Ананенко С.А. Повышение эффективности бюджетных расходов с помощью системы сбалансированных целевых показателей// Финансы- № 9 - 2004.

16.Бородин А.Н. О результативности расходования бюджетных средств // Финансы - № - 2005.

17.Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. – T.: Sharq, 2009

18.Vahobov A., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma.- T.: Iqtisod-moliya, 2008. -287b.

19.Vahobov A., Qosimova G., Jamolov Budget-soliq siyosati yaxlitligi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod va moliya, 2005.

20.Гусев С.И., Швецов Ю.Г. О роли федерального казначейства в финансовой системы государства // Финансы - № 11 – 2004.

21..Jo'raev A.S. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. – T.: Fan, 2004. – 243 b.

22.Qosimova G. G'aznachilik faoliyatini tashkil etish. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya. 2005.

23.Qosimova G.A. Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2008. 372 bet.

24.Qosimova G.A. Mahalliy budjetlarni tuzish va ijrosini ta'minlash.O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiyalar, 2007. 396 b.

25.Костюченко В.Ф. Пути реализации реформы местного самоуправления казначейскими органами // Финансы - № 9 - 2005.

26.Крохина Ю.А. Конституционные основы казначейской системы

исполнения бюджетов субъектов // Финансы - № 11 - 2006.

27.Кучкарова Т.С. Терехиленко В.Н. Выбор казначейской системы исполнения бюджета в странах СНГ // Финансы - №9 - 2005.

28.Лаврова А.М. Бюджетная реформа 2001-2008 гг.: от управления затратами к управления результатами. // Финансы - №9 - 2009.

29.Malikov T.S., Jalilov P.T. Budjet-soliq siyosati. – T.: Akadem nashr, 2011. – 472 b.

30.Malikov T.S., Haydarov N.H. Moliya: umumdavlat moliyasi. – T.: Moliya, 2009.

31.Нестеренко Т.Г. О развитии федерального казначейства // Финансы - №12, 2005.

32.Нестеренко Т.Г. Федеральное казначейство на новом этапе // Финансы - № 4 - 2005.

33.Никитина Т.Р. Применение ответственности за нецелевое использование бюджетных средств // Финансы -№ 11 -2005.

34.Ostonaqulov M. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi (2008 rasxodovaniya gosudarstvennix sredstv //Finansi, № 5, 2006.

35.Пахомов С.В. Секьюритизация доходов бюджета территориального образования и облигационные займы: опыт Нью-Йорка //Финансы - №12 - 2006.

36. Кучкаров Дж. Принципы организации казначейского исполнения государственного бюджета Республики Узбекистан. - Т.: Мир экономики и права,2005. –318 s.

37.Сабитова Н.М. Некоторые вопросы реформирования бюджетного процесса в РРоссийской Федерации //Финансы - № 7 - 2005.

38.Тимирханова Л.Р. Новый порядок финансирования расходов федерального бюджета // Финансы - № 7 - 2005.

39.Циденмункейнова Т.Ч. Доходы бюджетных учреждений от

предпринимательской и иной деятельности // Финансы - № 12 - 2006.

40.Чичелёв М.Е. О дальнейшем совершенствовании бюджетного процесса // Финансы - № 2 - 2006.

41.Шахова Г.Я., Боженко И.Р. Государственные расходы и социально-экономическое развитие // Финансы - № 8 - 2005.

42.Internet saytlari:

[http: //www.minfin.ru](http://www.minfin.ru) (O'zbekiston respublikasi Moliya Vazirligining rasmiy sayti)

[http: //www.mf.uz](http://www.mf.uz) (O'zbekiston respublikasi Moliya Vazirligining rasmiy sayti)

[http: //www.budget.ru](http://www.budget.ru) (Rossiya Byudjet ma'lumotlari sayti)

[http: //www.df.ru](http://www.df.ru)

[http: //www.nalog.ru](http://www.nalog.ru) (soliq ma'lumotlari haqida sayt)

[http: //www.finansy.ru](http://www.finansy.ru)

[http: //www.finance.rambler.ru](http://www.finance.rambler.ru)